preparatlari (damlamasi, suyuq ekstrakti) me'daichak kasalliklarini davolash, ishtaha ochish hamda ichakdan, bachadondan, burundan, milkdan, yaralardan va gemorroidalqon oqishlarni to'xtatish uchun qo'llaniladi. Oddiy bo'ymodaronning guli va yer ustki qismi ishtaha ochishda va me'da-ichak kasalliklarida ishlatiladigan yig'malar-choylar tarkibiga kiradi. Oddiy bo'ymodaron qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelinadi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatma qon tupurganda, qon aralash ich ketganda va boshqa kasalliklarda qon to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, damlamasini yana ishtaha ochish, o'pka sili, shamollash, astma, isitma, dizenteriya, ichak infeksiyasi va boshqa me'da-ichak kasalliklarini, bosh og'rig'ini davolash hamda siydik haydash uchun ishlatiladi. O'simlik gulining kukunini asalga qorib gijjalarni tushirish maqsadida bersa ham bo'ladi. Damlamasi bilan yaralarni yuvish tuzukkina naf beradi. O'simlik tasviri. Bo'ymodaronning bu uch turi bo'yi 15-75 sm ga yetadigan ko'p yillik o't-o'simlik. Poyalari bir nechta, tik o'sadi, shoxlanmagan yoki yuqori qismi shoxlangan. Mevasi - pista. May oyidan sentabrgacha gullaydi, mevasi iyun-sentabr oylarida yetiladi. Geografik tarqalishi. Bo'ymodaron turlari O'rta Osiyo respublikalaridagi Kavkaz va, qisman, Ukraina va Belorussiyaning janubiy hududlari. (Bibershteyn bo'ymodaroni) cho'llarda, yarimcho'llarda, tog' etaklaridan to tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan tosh-tuproqli tog yonbag'irlarida, shag'alli va qumli yerlarda, daryolarning shag'alli joylarida, soylarda, ariq bo'ylarida, o'tloqlarda, sho'r yerlarda, begona o't sifatida ekinzorlarda va bog' yerlarda o'sadi. Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi. O'simlik gullash davrida poyasining yuqori qismi (gullari va barglari bilan) hamda ildizoldi barglari o'rib olinadi va soya yerda quritiladi. Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Bo'ymodaron turlari garchi efir moyi saqlovchi o'simliklarga kirsada, lekin kimyoviy tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bibershteyn bo'ymodaronining yer ustki qismi tarkibida 0,13-0,52% efir moyi, alkaloidlar, 0,36% flavonoidlar (giperozid, lyuteolin, apigenin), 1,37% organik kislotalar, 74,8 mg % vitamin C va K, 2,50% gacha qandlar, smola, achchiq, 1,41-0,62 % oshlovchi va boshqa moddalar bor. Yer ustki qismining efir moyi 63% gacha sineoldan, 40% gacha p-simol, 10 % a terpineol, kamfara va boshqa terpenlardan tashkil topgan. Santolinli bo'ymodaron yer ustki qismi o'z tarkibida 0,11 % efir moyi, achchiq santolin va santolinoid hamda boshqa moddalar saqlaydi. Efir moyi 56% gacha kamfara, 20% gacha sineol, 15% linyon va boshqa terpenoidlardan tarkib topgan. Tobulgibarg bo'ymodaron yer ustki qismi tarkibida 0,07% (gulida 1,2 %) efir moyi, oz miqdorda alkaloidlar, 0,21 9% (gulida 0,7%) flavonoidlar (giperozid, lyuteolin, sinarozid), 37 kumarinlar, 2,50 % gacha qandlar, 6,5 % gacha oshlovchi va boshqa moddalar bor. Efir moyi 30 % atrofida borneol murakkab efiri, 8 % kampfen, 5% pinen, 35% spirt va boshqa birikmalardan tarkib topgan. Bo'ymodaronning bu uch turi qadimdan xalq

tabobatida turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelinadi. Yer ustki qismidan (ayniqsa, gulidan) tayyorlangan qaynatmasi bilan Abu Ali ibn Sino qaytishi qiyin bo'lgan shishlarni, eti uzilgan yerlarni va radikulit kasalliklarini davolagan. Nafas olish qiyinlashganda qaynatmasini yoki damlamasini ichishga buyurgan. Qaynatmasini yana bo'yрак va qovuq toshlarini tushirish uchun, siydik haydash, ayollarda to'xtab qolgan hayzni keltirish uchun qo'llagan. Bo'ymodaron turlarining yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasi xalq orasida me'da kasalliklariga, o'pka sili va bosh og'rig'iga davo qilinadi hamda turli qon oqishlarda qon to'xtatuvchi va isitmani tushiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Gullarining kukuni bilan kuyganni va ochiq qon oqib turgan yaralarni davolash mumkin. Buning uchun tananing kuygan yeriga va yaralarga kukundan sepiladi. Astma kasalligida bo'ymodaron turlari gulidan tayyorlangan damlamasi yoki qaynatmasiga novvot qo'shib ichiriladi.

BO'RIGUL - BARVINOK MALIY - Kendirdoshlar - Arosunaseae oilasiga mansub ko'p yillik o't-o'simlik. Tibbiyotda bo'rigulning O'rta Osiyoda o'sadigan ikki turidan foydalaniladi. Ular zaharli. Shulardan biri — Kichik bo'rigul - Barvinok maliy - V. minor L. doim yashil o'simlik. Poyasi yotib o'sadi, uzunligi 60 sm gacha yetadi, shoxlangan, gul hosil qiluvchi novdalari tik o'sadi. Barglari qalin, yaltiroq, ellipssimon, o'tkir uchli bo'lib, kalta bandi yordamida poyasida qapamaqarshi joylashgan. Yirik, to'q-ko'k rangli gullari uzun bandi bilan barg qo'ltig'iga yakka-yakka joylashgan bo'ladi. Mevasi 2 ta bargchadan tashkil topgan. Yer ustki qismi. Kimyoviy tarkibi. Tarkibida 0,6 % alkaloidlar (20 dan ortiq) va boshqa moddalar bor. Asosiy alkaloidlari vinkamin (devinkan), minorin, vinkaminorin izovinkamin va boshqalar hisoblanadi. O'simlik tasviri. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan, bo'yi 30-40 sm. Barglari ellipssimon, ba'zan tuxumsimon, poyasida bandsiz qarama-qarshi joylashgan; yirik, pushti rangli (gulbargining ichki tomoni oq rangli bo'ladi) gullari alohida-alohida barg qo'ltig'iga o'rnanishgan. Mevasi 2 ta bargchadan iborat. Aprel-may oylarida gullaydi, mevasi may-iyunda pishadi. Qo'llaniladigan qismi. Yer ustki qismi, ildizpoyasi va ildizi. Kimyoviy tarkibi. Tarkibida 2-3 % alkaloidlar, steroid saponin, ursol kislota va boshqa moddalar bor. Asosiy alkaloidlariga vinkanin, vinkanidin, vinervin, rezerpinen va boshqalar kiradi. Bo'rigul turlarining ishlatilishi. Dorivor preparatlari (tabletkalar holidagi devinkan, vinkapan, vinkaton) qon bosimini pasaytiruvchi vosita sifatida gipertoniya kasalligida hamda miya qon-tomirlari spazmini davolashda qo'llaniladi. Bo'rigul turlaridan tayyorlangan qaynatma xalq tabobatida bosh og'rig'anda og'riq qoldiruvchi hamda bosh aylanishni, ich ketishini, shuningdek, qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llanadi. Tish og'rig'anda qaynatma bilan og'iz chayiladi, yer ustki qismidan tayyorlangan poroshogi (kukuni) yaralarga sepiladi. Lekin bo'rigul turlari zaharli o'simlik ekanligini esda tutish lozim!

DORIVOR JERUXA – Bu o‘simlik karamsimonlar oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik dorivor va ovqatlik o‘simlikdir. Shoxchalari ko‘tarilgan holda ichi teshik yo‘l-yo‘l, barglari juft holatda joylashadi. Shoxdagi yuqori barglar biroz ovalsimon. to‘rtta Maydan boshlab sentabr oylarigacha gullaydi. Gullari oq, qismlarida gultojibarglardan iborat bo‘lib, shoxining yuqori turadi. joylashadi. Mevasi danaklari biroz shishib maysani Dorivor xomashyosi ko‘kati hisoblanadi. O‘sayotgan xomashyo 40-45 kundan keyin o‘rib, 40-45 sm yetganda, bog‘lab, sifatida ishlatishga tayyorlanadi. Xomashyoni savatchalarga solib, keyin quritiladi. qilish Go‘sh uchun va baliqdan tayyorlangan taomlar bilan iste‘mol yog‘i bilan aralashtirib buning yangi ko‘katlari mayonez yoki o‘simlik ishlatiladi. O‘simlik Bu ishtaha vitamin qo‘zg‘ovchi achchiq, o‘tkir ta‘m beradi. yo‘q. Vitamin C va karotin mikroelementlarga boy, tarkibida qand Maysasida efir moddalari piyozga nisbatan ko‘p. mis, marganes, fosfor, moylari, yod, kalsiy, magniy, temir, rux, provitaminlari topilgan. kaliy, Bu natriy, o‘simlikda vitamin E, B₁, A va D mikroelementlar vitaminlar va to‘g‘ri taqsimlangan. Jeruxa preparatlari siydik haydovchi, balg‘am ko‘chiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, qabziyatga qarshi, tonus ko‘taruvchi, modda almashinuvini regulatsiya qilish xususiyatiga ega. Avitaminoz, kamqonlikda revmatizm da podagra o‘t va siydik pufagi kasalliklari, jigar yuqori nafas yo‘llari, qalqonsimon bez, qandli diabetda, o‘t va siydik tosh kasalliklarida ichiladi. Teri toshmalarida, teri qichishishida, kuyganda tashqaridan teriga surtiladi. Ozganda, ateroskleroz profilaktikasida, anemiyada, jigar kasalliklarida, bo‘yrak va siydik toshlari kasalliklarida bo‘yrak va oshqozonichak tizimi yallig‘lanishida yangi tayyorlangan sharbat ichiladi. Kuyganda, so‘gallarga, qarshi, lipomalarida tashqaridan maz sifatida qo‘llaniladi.

Tabiat bizga boy dorivor o‘simliklar dunyosini tuhfa etgan bo‘lib, ularning to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan qo‘llanilishi inson salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu o‘simliklarning ba‘zilari toksik ta‘sirga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, ularni faqat mutaxassis tavsiyasi asosida ishlatish tavsiya etiladi. Tabiiy dori vositalaridan foydalanganda ularning to‘g‘ri dozlash qoidalariga rioya qilish muhim bo‘lib, aks holda foyda o‘rniga zarar yetkazishi mumkin.

REFERENCES

1. A. Qodirov. "Tabiiy dorilar va ularning qo'llanilishi" –Tibbiyot-2020. 280b
2. Z.Xolmatova. "Fitoterapiya: Nazariya va amaliyot"- Fan va texnologiya 2019. 350b
3. T.Yusupov. "O'simliklarning dorivor xossalari"-O'qituvchi 2017. 240b
4. R.Ismoilov "O'zbekistonning qimmatbaho dorivor o'simliklari" O'zbek-2016. 300b
5. "Oddiy boymodaronning tibbiy ahamiyati" M.Karimova. "Tibbiyot va sog'liqni saqlash" jurnali, 2021-yil, №4. (<http://www.tibbiyot.uz/>)
6. "Bryonia alba: Xususiyatlari va qo'llanilishi" Sh. Toshmatov. "Tabiiy dorilar" jurnali, 2020-yil, №2. (<http://www.tabiydorilar.uz/>)
7. "Dorivor jeruxa: An'anaviy va zamonaviy tibbiyotda o'rni" N.Abdullayeva. "Farmatsevtika yangiliklari" jurnali, 2022-yil, №3. (<http://www.farmatsevtika.uz/>)
8. Dorivor o'simliklar, ularning xossalari va qo'llanilishi haqida to'liq ma'lumot. (<http://www.fitoterapiya.uz/>)
9. O'simliklarning tibbiy xususiyatlari va ularning tarixiy qo'llanilishi. (<http://www.ensiklopediya.uz/>)
10. L. Qurbonova. "An'anaviy tibbiyotda o'simliklarning roli"
- L. Qurbonova. "Sog'liqni saqlash" jurnali, 2021-yil, №5. (<http://www.soglik.uz/>)
11. <https://my.clevelandclinic.org/health/diseases/23420-mercury-poisoning>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007300>

UDK: 551.49.

O'ZBEKISTONDA YER OSTI SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Jamilov Baxtiyor Baxriddin o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti "Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi" ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning yer osti suv resurslari, ularning zaxiralari va hududlar bo'ylab tarqalganligi, ulardan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilingan. Yer osti suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha hukumat qarorlari va amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqilgan. Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslar, jumladan, suvdan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: gidrogeologiya, ekologiya, yer osti suvlari, suv resurslari, artezian quduqlar, burg'ilash, tabiiy, antropogen ta'sirlar.

Abstract. The article deals with groundwater resources of Uzbekistan, their reserves and distribution by regions, as well as problems arising in their utilisation. Government decisions and current work on effective utilisation of groundwater resources are considered. It is shown that the country pays special attention to environmental protection, natural resources, including rational use of water resources.

Keywords: hydrogeology, ecology, groundwater, water resources, artesian wells, drilling, natural, anthropogenic impact.

KIRISH. Suv resurslari dunyoning barcha mamlakatlarida milliy boylik sanaladi, ularning mavjudligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishining asosiy Jamiyatning iqtisodiy salohiyatini rivojlanishi ko'p jihatdan suv ta'minoti darajasiga bog'liq. O'z navbatida, suv ta'minoti darajasi insonning ma'lum bir geografik hududdagi suv resurslari bilan belgilanadi. Tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyat faqat iqtisodiy rivojlanish darajasiga muvofiq mavjud bo'lgan tabiiy suv turlaridan foydalangan. Suv resurslarining o'ziga xos xususiyati ularning

yangilanishidir. Shu tarzda, ular boshqa tabiiy resurslardan tubdan farq qiladi. Suv resurslari qadimgi zaxiralar va qayta tiklanadigan resurslar ekanligi bilan ajralib turadi. Suv resurslari orasida yer osti suvlari alohida ahamiyatga ega.

Yer osti suvlarini o'rganish turli xil iqtisodiy vazifalarni hal qilishda olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlarning umumiy majmuasida juda muhim ahamiyatga ega. Yer osti suvlarini o'rganish maqsadida muntazam gidrogeologik kuzatuvlar yer osti suvlarining hosil bo'lish jarayonlarining miqdoriy tavsifini berishga, ularning miqdori, sifati va xususiyatlaridagi o'zgarishlarning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga va yer osti suvlarini oqilona o'zlashtirish va himoya qilish yo'llarini, ularning zararli ta'siriga qarshi kurash choralari tarkibini va ularning rejimini boshqarish usullarini asoslash uchun ushbu qonuniyatlardan foydalanishga imkon beradi. Kelajakda ushbu tadqiqotlarning roli va ahamiyati oshadi, chunki hududni gidrogeologik o'rganish kuchayadi, kuzatuvlar tarmog'i rivojlanadi va har xil gidrogeologik bashoratlarni amalga oshirish uchun statsionar kuzatuvlar natijalaridan foydalanish usullari yaxshilanadi. Yer osti suvlarining rejimi va balansini kuzatish ma'lumotlari nafaqat muhandislik bashoratlarining yuqori ishonchliligi va asosliligini, balki gidrogeologik izlanishlar va tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Global iqlim o'zgarishi va aholi sonining ko'payishi sharoitida yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanish muammosi tadqiqotlar uchun muhim vazifa bo'lib qolmoqda.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O'zbekistonning yer usti va yer osti suvlarini o'rganish bo'yicha turli yillarda G.A.Mavlyanov, N.N.Xodjibayev, K.P.Pulatov, E.V.Mavlyanov, F.B.Abotaliyev, U.U.Umarov, B.Ya.Neyman, M.A.Pankov, K.M.Aripov, V.G.Samoylenko, Yu.I.Irgashev, L.Z.Sherfedinov, Ya.S.Sadikov, A.I.Golovanov, V.A.Geyns, M.M.Krilov, U.U.Usmonov, M.R.Raximov, A.A.Mavlonov, I.X.Xabibullayev, M.S.Alimov, V.U.Magdiyev, N.N.Kamilov, J.X.Djumanov, S.X.Xushvaktov, A.B.Alimbayev, P.P.Nagevich, O.V.Chebotaryev, I.N.Grachyeva va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan, tadqiqotlar natijasida O'zbekiston respublikasi hududi uchun gidrogeologik sharoitlarni modellashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan, turli geologik va muhandislik-geologik sharoitlarda regional va lokal monitoringni o'tkazish mezonlari belgilangan.

Yer osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralarini baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: gidrodinamik usul, gidravlik usul, muvozanat usuli, gidrogeologik analogiyalar va raqamli modellashtirish usuli, shuningdek ularning kombinatsiyasi. Statsionar kuzatuv ma'lumotlaridan foydalanish gidrogeologik tadqiqotlar kompleksining samaradorligini oshiradi va gidrogeologiyaning ko'plab amaliy va nazariy muammolarini yanada oqilona va to'g'ri hal qilishga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Dunyo resurslari instituti tadqiqotiga ko'ra, 2025 yilga kelib dunyo aholisining yarmi suv tanqisligiga uchragan hududlarda yashashi kutilmoqda. Kelajakda, hatto, yetarli suv resurslariga ega mamlakatlarda ham suv tanqisligi sezila boshlaydi. Bu bir qator omillar - infratuzilma va suv taqsimlashdagi xatoliklar, ifloslanish, mojarolar yoki suv resurslarini noto'g'ri boshqarish bilan bog'liq. Iqlim o'zgarishi esa suv tanqisligi muammosini tezlashtirib yuboradi [1].

Mamlakatimizda hozirgi kunda 97 ta yer osti suv konlari aniqlangan bo'lib, ularning umumiy suv resurslari 63,9 mln. m³/kun. (umumiy suv resurslarining 25%) ni tashkil qiladi, shundan sho'rli 1 g/l gacha bo'lgan suvlar 25,8 mln. m³/kun (40%) ni tashkil qiladi (1-rasm). Bugungi kunda ichimlik suvi ta'minotining 67 foizi yer osti suvlari hisobidan amalga oshirilmoqda.

Yer osti chuchuk suvlari zaxiralari respublikamiz bo'yicha bir xil tarqalmagan, asosan Toshkent viloyatida 28%, Samarqand 14%, Surxondaryo va Namangan 13% dan, Andijon – 12% va Farg'onaga – 8% to'g'ri keladi va respublika ichimlik suv ta'minotining 67 foizini tashkil etadi. Shundan, Farg'ona (29,1%), Namangan (13,2%), Qashqadaryo (10,8%), Samarqand (11,5%), Toshkent (10,3%) viloyatlarida yer osti suvlaridan keng foydalanilmoqda [1, 2, 3].



1-rasm. Yer osti suvlarining hududlar kesimida tarqalganligi, %.

Yer osti suvlarini izlash, qidirish, zaxiralarini hisoblash va ularni oqilona qazib chiqarishda quduqlar muhim rol o'ynaydi. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, yer osti suvlarini qazib chiqarish quduqlari mintaqaning gidrogeologik sharoitlari va qazib chiqariladigan suvlarning nima maqsadlarda foydalanilishiga bog'liq holda turli chuqurliklarda burg'ilanadi. O'zbekiston hududida ichimlik suvlari va foydalanishga yaroqli suvlar artezian suvlar hisoblanadi. Bu suvlar 100-400 m va undan ham katta chuqurlikda joylashgan, shu tufayli sifati ham bir xil emas. O'zbekiston hududida bir qancha artezian suv havzalari joylashgan. Ularning eng muhimlari Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent oldi, Mirzacho'l, Qizilqum, Qarshi va boshqalar. Bu havzalardan yer osti suvlari yuqorida qayd etilganidek, chuqur quduqlar orqali qazib chiqariladi.

Davlat geologiya qo'mitasi tizimidagi "O'zbekgidrogeologiya" DUK mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil holatida O'zbekiston hududida 50839 ta yer osti suvlarini qazib chiqarish quduqlari ro'yxatdan (inventarizatsiya) o'tkazilgan. Viloyatlar kesimida yer osti suvlari qazib chiqariladigan quduqlar soni: Samarqand viloyati hududida 9441 (19%) ta, Farg'onada – 7111 (14%), Qashqadaryoda – 5998 (12%), Toshkentda – 4555 (9%), Andijonda – 3717 (7%), Jizzaxda – 3281 (7%), Navoiyda – 3591 (7%), Namanganda – 3745 (7%), Buxorada – 2720 (5%), Surxondaryoda – 2603 (5%), Sirdaryoda – 2033 (4%), Qoraqalpog'iston Respublikasida – 1581 (3%) va Xorazmda – 463 (1%) tani tashkil etadi [6]. Respublikamizda yer osti suvlari monitoringi tizimi 1500 dan ortiq kuzatuv quduqlaridan olingan suv namunalarining minerallashuv darajasiga asosan tahlil qilinmoqda [4-8].

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, respublikamiz hududida yer osti suvlarini qazib chiqarish quduqlarining soni anchagina salmoqli. Ular aholini ichimlik suvi, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarini suv ta'minotida muhim o'rin tutadi. Bu quduqlarni hududlarda joylashtirish tizimlari, ularni samarali va uzoq muddat ishlatish yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda suv resurslari uch xil maqsadga, jumladan, aholi uchun toza ichimlik suvi va ishlab chiqarish korxonalari ta'minotiga, qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishga yo'naltiriladi. Qayd etish joizki, mazkur sohalarning hammasi bir-biridan muhim va zarur. Ichimlik suvi ta'minoti tizimini rivojlantirish va modernizatsiyalash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va maqsadli dasturlarni amalga oshirish asosida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslar, jumladan, suvdan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Daryolar, soylar, suv omborlari va boshqa suv havzalari, suv xo'jaligi ob'ektlari hamda boshqa barcha suv manbalarini sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarning zararli ta'siridan muhofaza qilishni kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2019-yil 11-dekabrda 981-sonli qarori qabul qilingan.

Aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv ob'ektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan (06.05.1993 yildagi 837-XII-son). Ushbu hujjat qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada kengaytirish, suv resurslaridan unumli foydalanish va ularni muhofaza qilishni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. 30.11.2021 yildagi O'RQ-733-son Qonun bilan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.01.2021 yildagi 9-son "Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan yer osti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi.

Respublikada yer osti suvlaridan foydalanish va quduq burg'ilash tizimini yanada takomillashtirish, yer osti suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, aholi orasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini keng targ'ib qilish, ularning miqdor jihatdan kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish hamda pirovard natijada aholini uzoq muddatli istiqbolda sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida 7-dekabr 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-439-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga ko'ra, yer osti suvlaridan foydalanuvchilarga **2024 yil 1 yanvarga qadar yer osti suvlaridan foydalanishning aniq hisobini yuritish maqsadida o'z tasarrufidagi yer osti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan belgilangan tartibda jihozlash majburiyati yuklatilgan.**

Shuningdek, 2024 yil 1 yanvardan boshlab suvni hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan yer osti suv olish inshootlaridan foydalanish taqiqlanadi. Bunda jismoniy shaxslarga shaxsiy va xo‘jalik ehtiyojlari uchun yakka tartibda sutkasiga 5 metr kubgacha (sutkasiga 5000 litrgacha) bo‘lgan miqdorda yer osti suvlarini olish mustasno. Ya’ni, bunday quduqlarni suv hisoblash vositalari bilan jihozlash majburiy emas.

2023 yil 1 apreldan boshlab yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash uchun ruxsatnoma berishning amaldagi tartibi bekor qilindi hamda vazirlik tomonidan burg‘ilovchi sub’ektlarga yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnoma berish tartibi joriy etilib, o‘z tasarrufidagi burg‘ilash uskunalari GPS-trekerlar bilan jihozlash va ularni doimo ishchi holatda saqlash majburiyati yuklatildi.

Atrof-muhit ob’ektlarining ifloslanishi monitoringiga ko‘ra, yer osti suvlarining asosiy ifloslantiruvchi moddalari sanoat, qishloq xo‘jaligi va kommunal korxonalar hisoblanadi. Respublikamizning ayrim hududlarida yer usti suv chiqarish tarmoqlari va drenaj tizimlarining qoniqarsiz holati, ayrim shaharlar va boshqa aholi punktlarida yer osti suvlari sathining jadal ko‘tarilishiga olib kelgan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi va sanoatni jadal rivojlantirish yer osti suvlariga ehtiyoj keskin ortishiga olib kelib, bu suv resurslaridan oqilona foydalanish tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Soha mutaxassislarining yer osti suvlari monitoringi natijalariga asosan so‘nggi yillarda Navoiy, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarining ayrim hududlarida yer osti suv sathi 5 metrgacha va undan ortiq pasayib, ularning resurslari kamayib ketishi kuzatilmoqda. Mazkur hududlarda suvga quduq burg‘ilash va ulardan foydalanish bo‘yicha moratoriy joriy etildi. Yer osti suvlari sathning o‘rtacha ko‘p yillik sathga nisbatan 5 metrdan ortiq pasayib ketgan hududlarda yer osti suvlaridan faqat ichimlik maqsadlarida foydalanish mumkin [2, 3].

Yer osti boyliklarini qazib olish tufayli buzilgan yerlarning xatlovi natijasida aniqlangan maydonlarni 2023-2025 yillarda hududlar kesimida rekultivasiya qilish reja-jadvaliga muvofiq, tog‘-kon sanoati va geologiya korxonalari tomonidan buzilgan yer maydonlari o‘rganildi va rekultivasiya qilish ishlari amalga oshirildi.

Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalardan (tomchilatib, yomg‘irnatib, diskret va boshqalar) foydalanilmaganda burg‘i quduqlaridan foydalanishni taqiqlash vazifasini amalga oshiradi. Bu haqda 2022 yil 7 dekabrda “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarorida belgilab qo‘yilgan.

Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish, ularning kamayib ketishini oldini olish, jismoniy va yuridik shaxslarning suvga quduqlar burg‘ilash bilan bog‘liq faoliyatini tartibga solish, shuningdek, suv hisobini yuritish mexanizmini yanada

takomillashtirish maqsadida 28.12.2023 yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yer osti suvlariga quduqlarni burg'ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 685-son qarori qabul qilindi.

"Yer qa'ridan foydalanish markazi" DMning ma'lumotiga ko'ra, yer qa'ridan foydalanish huquqiga ruxsatnomalarni berish to'liq elektronlashtirilib, 2023 yilda yerosti suvlari bo'yicha jami 1895 ta gidrogeologik xulosa berilgan. Shuningdek, yer osti suvlariga quduq burg'ilashga jami 2157 ta ruxsatnoma hamda suvdan maxsus foydalanish uchun jami 1399 ta ruxsatnoma berilgan [7].

Yer osti suvlari holatini doimiy kuzatib borish va ularda bo'layotgan o'zgarishlarning onlayn nazoratini o'rnatish maqsadida vazirlik tarkibidagi "O'zbekgidrogeologiya" DM tarkibida Situatsion markaz tashkil etilib, markaz yer osti suvlari monitoringining raqamli ma'lumotlar bazasi va interaktiv xaritasini tayyorlash bo'yicha zamonaviy uskunarlar va dasturiy ta'minotlar bilan jihozlandi.

Olinayotgan yer osti suvlari hisobini aniq yuritish va suvni tejash choralarini amalga oshirishi maqsadida 2024 yil 1 yanvardan boshlab suv hisoblash vositalari bilan jihozlanmagan yer osti suv olish inshootlaridan foydalanish taqiqlandi. Bunda suv hisoblash vositalarisiz yer osti suvlaridan foydalanganda soliq to'lovi soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirilishi belgilanganligini alohida qayd etish lozim.

Yer osti suvlariga quduqlar burg'ilash faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli **618 ta burg'ilash uskunalarining ro'yxati** shakllantirildi. Burg'ilash uskunalarini GPS-trekerlar bilan jihozlanishini ta'minlash maqsadida ularning holati va turgan joyini ko'rsatuvchi alohida **axborot tizimi** yo'lga qo'yildi [8].

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining "Yer osti va yer usti suv obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2024-yil 22-noyabrdagi 26-son qarori bilan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari yer osti va yer usti suv obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari belgilandi. Mazkur qarorda yer osti va yer usti suv suv obyektlarining ifloslanish darajasiga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari, sifatiga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari, sanitariya muhofazasiga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari va qishloq xo'jaligining sug'orish maydonlarida oqova suvlaridan foydalanishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyeniya talablari yaqqol ko'rsatib berilgan.

Hozirgi kunda aholi va qishloq xo'jaligi iste'molchilari tomonidan yer osti suvlaridan to'g'ri va oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish masalasi tobora muammoga aylanib bormoqda. Jahonda yuz berayotgan iqlim o'zgarishining natijasida mintaqamizda ham suv havzalarining suvsizlanishi, suv sarfining kamayishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yer osti suv manbalaridan ortiqcha foydalanish bilan bog'liq antropogen ta'sirlar kuzatilmoqda.

Yer osti suvlarining ifloslanishi bir qator ekologik va ijtimoiy oqibatlariga olib keladi. Yer osti suvlaridan ifloslantiruvchi moddalarning oziq-ovqat zanjirlari orqali tarqalishi jiddiy e'tibor talab qiladi. Bunday holda, toksik elementlar inson tanasiga nafaqat ichimlik suvi bilan, balki o'simlik va hayvonlarning oziq-ovqatlari orqali ham kiradi. Maishiy maqsadlarda ishlatiladigan suvning kimyoviy tarkibini o'z vaqtida, tezkor va sifatli nazorat qilish aholi salomatligini yaxshilash shartlaridan biridir. Yer osti suvlari sifati muammosi hozirgi kunda insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi [9-12].

XULOSA. Suv resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi hamda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirish imkonini beradi. Umuman olganda, suvni tejash mamlakatga iqlim o'zgarishiga moslashish va ichimlik suvining kamayishi, yong'in va qurg'oqchilik xavfining oshishi kabi salbiy ta'sirni yumshatishda muhim omil bo'ladi.

Suv resurslarini tejash suv iste'moli va ifloslanishi bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga yordam beradi. Bunga suvdan foydalanish unumdorligini oshirish va suv yo'qotilishini kamaytirish, samarali texnologiyalarni qo'llash orqali erishiladi. Suv sarfini kamaytirish, irrigatsiya tizimlarini isloh qilish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, oqilona rejalashtirish va boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar – iqtisodiy samaralarga erishish va tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Bunda yer osti suv quduqlarini burg'ilash, ularni oqilona ishlatish va suv to'plovchi inshootlarni qurish jarayonida mavjud qonun-qoidalariga qat'iy amal qilish, yer osti suv zahiralarini va inshootlarini muhofaza qilish hududlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Электрон ресурс: URL: <https://www.xabar.uz/jamiyat/suv-boyicha-xavotirli-prognoz-204nima-kutadi>
2. Электрон ресурс: URL: <https://www.uznature.uz/ru/site/news?id=3019>.
3. Электрон ресурс: URL: <https://kun.uz/news/2022/08/02/yetti-hududda-yerosti-suv-sathi-5-metr-gacha-pasayib-ketgani-malum-boldi>.
4. Электрон ресурс: URL: <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/ozbekistonda-yer-osti-suvlari-holati-qanday>.
5. Электрон ресурс: URL: <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/geografiya/zbekiston-suvlari>.
6. Электрон ресурс. Айтметов Б. Состояние подземных вод в Узбекистане. 2022.
7. Электрон ресурс: URL: <https://daryo.uz/k/2024/02/02/2024-yildatadbirkorlik-subyektlariga-yer-qari-uchastkalaridan-foydalanish-huquqi-uchun-elektron-auksion-savdolari-orqali-350-ta-uchastka-taklif-etiladi>.
8. Электрон ресурс: URL: <https://telegra.ph/2024-jil-1-yanvardan-schyotchiklarsiz-er-osti-suv-olish-inshootlaridan-foydalanish-ta%D2%9Bi%D2%9B1anadi-08-31>.
9. Ярбобоев Т.Н., Қосимова К.Ё. Ер ости сувларини қазиб чиқаришда сув кудуқларини бурғилаш ва ишлатиш тизимини такомиллаштириш// Sanoatda raqamli texnologiyalar. Volume 2 Issue 1, Mart 2024.
10. Ярбобоев Т.Н., Қосимова К.Ё., Жалилов Б.Б. Ер юзаси чўкишининг геологик ва антропоген омиллари // NEW INNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION Ilmiy jurnali. №3(1) 2024.
11. Yarboboev T.N., Qosimova K.Y. Tabiiy yer osti suvlaridan samarali foydalanish muammolari va yechimlari haqida // TAFAKKUR MANZILI Ilmiy jurnali. 2024-Aprel-1-qism.
12. Ярбобоев Т.Н., Қосимова К.Ё., Жалилов Б.Б. Артезиан кудуқларининг самарали ва узоқ муддат ишлашини таъминлайдиган асосий омиллар // NEW INNOVATIONS IN NATIONAL EDUCATION Ilmiy jurnali. №4(1) 2024.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007312>

MIYA QON-TOMIRLARINING MORFOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI VA ULARNING YOSH BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARI

Mustafoev Zafarjon Mustafo ogli

Tibbiyot fanlari nomzodi PhD, Samarqand davlat tibbiyot universiteti odam
anatomiyasi kafedrası dotsenti

Tirkashev Abdubaxid Sharof o'g'li

Odam anatomiyasi kafedrası magistratura rezidenti, Samarqand davlat tibbiyot
universiteti

zafarmustafoev8@gmail.com

Annotatsiya: Bosh miya tomirlarining morfologik xususiyatlarini va ularning yoshga bog'liq o'zgarishlarini o'rganish, serebrovaskulyar kasalliklarning patogenezi tushunish hamda ularning oldini olish va davolash usullarini ishlab chiqishda prinsipial ahamiyatga ega. Bosh miya tomirlaridagi yoshga bog'liq o'zgarishlar turli nevrologik buzilishlarning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: bosh miya tomirlari, yoshga bog'liq o'zgarishlar, morfologiya, morfometriya, tomir devori, endoteliya, ultrastruktura, serebrovaskulyar kasalliklar.

Kirish

Bosh miya tomirlarining morfologik xususiyatlarini va ularning yoshga bog'liq o'zgarishlarini o'rganish zamonaviy neyromorfologiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli serebrovaskulyar kasalliklarning rivojlanish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bosh miya tomirlarining tizimi o'zining noyob struktural tashkilotiga ega bo'lib, nerv to'qimasining normal faoliyatini ta'minlash va markaziy nerv tizimining gomeostazini qo'llab-quvvatlash uchun optimal sharoitlarni yaratadi. Bosh miya tomirlaridagi yoshga bog'liq o'zgarishlar tabiiy biologik jarayon bo'lsa-da, ularning ifodalanishi va rivojlanish tezligi turli endogen va ekzogen omillar ta'sirida sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Zamonaviy epidemologik ma'lumotlar serebrovaskulyar kasalliklarning tarqalishi ortib borayotganini ko'rsatadi, bu esa yoshga bog'liq tomir o'zgarishlarining morfologik substratini chuqur o'rganish zarurligini belgilaydi.

Materiallar va usullar

Tomir devorining turli komponentlarining struktural tashkilotini o'rganish, shu jumladan endotelyal qavat, bazal membrana, silliq mushak elementlari va bog'langan to'qima karkasining o'rganilishi katta ahamiyatga ega. Har bir ushbu komponent yoshga bog'liq xos o'zgarishlarga uchraydi, ular esa birgalikda bosh miya tomirlarining funktsional holatini va uning adaptatsion imkoniyatlarini belgilaydi. Zamonaviy morfologik tadqiqot usullari, shu jumladan optik va elektron mikroskopiya, immunogistokimyoviy tahlil, morfometriya va uch o'lchamli rekonstruktsiya, tomir devorining struktural o'zgarishlari haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Endoteliotsitlarning ultrastruktural o'zgarishlarini o'rganish, ular miya gemodinamikasi va qon-bosh miya to'sig'ining o'tkazuvchanligini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa qiziqarli bo'ladi.

Yoshga bog'liq morfologik o'zgarishlarning dinamikasi ma'lum bir bosqichni tavsiflaydi, bunda patologik o'zgarishlarning rivojlanish xavfi sezilarli darajada oshadigan kritik davrlar ajratiladi. Ushbu davrlarni aniqlash va tegishli struktural o'zgarishlarni batafsil tasvirlash profilaktik tadbirlarni ishlab chiqishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Maxsus e'tibor qarish davrida bosh miya tomirlarida rivojlanadigan kompensator va adaptatsion mexanizmlarni o'rganishga qaratilishi kerak. Ushbu mexanizmlarni tushunish bosh miya tomirlarining struktural yaxlitligini va funktsional faoliyatini saqlab qolishga qaratilgan yangi terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.

Morfologik tadqiqotlarning klinik ahamiyati olingan ma'lumotlarni tomir buzilishlarining erta diagnostikasi usullarini takomillashtirish va davolash samaradorligini baholash uchun qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Yoshga bog'liq o'zgarishlarning morfologik markerlari serebrovaskulyar asoratlarning rivojlanish xavfini aniqlashda muhim prognoz kriteriylari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Natijalar va muhokama

Aniqlangan yoshga bog'liq bosh miya tomirlarining struktural tashkiloti xususiyatlari. Yosh o'sishi bilan tomir devorining qalinligining 28,5% ga ($p < 0,001$) oshishi, elastikligini 34,2% ga pasayishi va tomirlar bo'shlig'ining 15,7% ga kamayishi aniqlandi. Tomir devorining struktural qayta qurilishi uchun kritik davrlar aniqlangan. Immunogistokimyoviy tadqiqotlar, yuqori yosh guruhlarida endoteliyal markerlarning ekspressiyasining 41,3% ga kamayishini ko'rsatdi. Elektron mikroskopiya yordamida endoteliotsitlar va bazal membrananing ultrastruktural o'zgarishlari aniqlangan. Tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlardan biri – qon tomirlarining struktural o'zgarishlari va miya gemodinamikasidagi buzilishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishdir. Zamonaviy vizualizatsiya usullarini morfologik tahlil bilan birgalikda

qo'llash tomir devorining struktural o'zgarishlari va miya qon aylanishining funktsional buzilishlari o'rtasidagi korrelyatsion aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Yoshga bog'liq tomir o'zgarishlarining kognitiv buzilishlar va neyrodegenerativ kasalliklarning rivojlanishidagi roli o'rganish uchun katta ahamiyatga ega. Kognitiv disfunktsiyaning morfologik korrelyatlarini aniqlash, yoshga bog'liq nevrologik kasalliklarni oldini olish va davolashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, bosh miya tomirlarining morfologik xususiyatlarini va ularning yoshga bog'liq o'zgarishlarini kompleks o'rganish dolzarb ilmiy muammo bo'lib, uning yechimi fundamental neyromorfologiya rivojlanishi va serebrovaskulyar kasalliklarni oldini olish va davolash usullarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalar, bosh miya tomirlarining yoshga bog'liq o'zgarishlarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, bemorlarni boshqarishda shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. Bosh miya tomirlarining morfologik xususiyatlarini va ularning yoshga bog'liq o'zgarishlarini o'rganish zamonaviy neyromorfologiya va tomir patologiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu muammoning dolzarbligi serebrovaskulyar kasalliklarning tarqalishining ortib borishi bilan bog'liq bo'lib, bu kasalliklar rivojlangan mamlakatlar aholisi orasida kasallanish va o'lim darajalarida etakchi o'rin egallaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, serebrovaskulyar kasalliklar har yili 6 milliondan ortiq o'limga sabab bo'ladi va ushbu patologiyaning yoshartish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bosh miya tomirlaridagi yoshga bog'liq o'zgarishlar turli nevrologik buzilishlarning patogenezida muhim rol o'ynaydi, shu jumladan o'tkir miya qon aylanishi buzilishlari, bosh miya surunkali ishemiya, kognitiv buzilishlar. Zamonaviy tibbiy vizualizatsiya va morfologik tadqiqot usullari sohasidagi yutuqlar bosh miya tomirlarining struktural tashkiloti haqidagi tasavvurlarni sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq, tomir devorining yoshga bog'liq qayta qurilishi, adaptatsiya va kompensatsiya mexanizmlari, shuningdek, patologik o'zgarishlarning rivojlanish qonuniyatlari hali to'liq o'rganilmagan. Bosh miya tomirlarining endotelyal qavatining struktural-funktsional xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega, chunki u miya qon aylanishini tartibga solish va qon-bosh miya to'sig'ini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Endotelyal qavatdagi yoshga bog'liq o'zgarishlar turli tomir buzilishlarining rivojlanishi uchun boshlang'ich mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin, ammo endotelyal qavatning batafsil morfologik xususiyatlari va bu o'zgarishlar hali chuqur o'rganishni talab qiladi.

Muammoning muhim jihatlaridan biri tomir devorining struktural qayta qurilishining kritik davrlarini aniqlashdir, bu esa profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish va profilaktik ta'sirlar uchun optimal vaqtni belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Serebral tomirlardagi yoshga bogʻliq morfologik oʻzgarishlarning dinamikasi haqidagi zamonaviy maʼlumotlar fragmental boʻlib, serebral tomir tizimining qarish jarayonini butunlay tasvirlash imkonini bermaydi. Immunogistokimyoviy tadqiqotlar va elektron mikroskopiya kabi yangi morfologik tahlil usullarini ishlab chiqish tomir devorining komponentlaridagi ultrastruktural oʻzgarishlarni batafsil oʻrganish uchun qoʻshimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu yoshga bogʻliq patologik jarayonlarning rivojlanish mexanizmlarini tushunish va maqsadli terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun ayniqsa muhimdir. Serebrovaskulyar kasalliklarni diagnostika qilish, profilaktika qilish va davolash usullarini takomillashtirish uchun olingan maʼlumotlarni qoʻllash imkoniyati klinik jihatdan morfologik oʻrganishlarning ahamiyatini belgilaydi. Tomir devorining yoshga bogʻliq oʻzgarishlar qonuniyatlarini tushunish, tomir katastrofalarining oldini olish va tomir qarish jarayonlarini sekinlashtirish boʻyicha yangi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin. Muammoning interdisipliner xususiyati morfologik tadqiqotlar natijalari va klinik kuzatuvlar maʼlumotlarini integratsiyalashni talab qiladi, bu esa yoshga bogʻliq serebrovaskulyar patologiyani oldini olish va davolash boʻyicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni yaratishga imkon beradi. Yoshga bogʻliq tomir buzilishlarining rivojlanishini erta bosqichlarda prognozlashga qodir morfologik markerlarni qidirish katta ahamiyatga ega. Tadqiqot 120 ta bosh miya tomir preparatlarida oʻtkazildi, ular turli yosh guruhlari vakillaridan (20 yoshdan 85 yoshgacha) olingan va autopsiya orqali aniqlangan. Tadqiqotda morfometrik, histologik, immunogistokimyoviy usullar va elektron mikroskopiya qoʻllanildi. Olingan maʼlumotlarga statistika tahlili zamonaviy dasturiy tizimlar yordamida oʻtkazildi.

Xulosa

Shunday qilib, bosh miya tomirlarining morfologik xususiyatlarini va yoshga bogʻliq oʻzgarishlarni kompleks oʻrganish dolzarb ilmiy vazifa boʻlib, uning yechimi zamonaviy tibbiyot uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Olingan natijalar serebrovaskulyar kasalliklarni oldini olish va davolash boʻyicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos boʻlishi, shuningdek, tomirlarning qarish mexanizmlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berishi mumkin. Olingan maʼlumotlar bosh miya tomirlarining yoshga bogʻliq oʻzgarishlar qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi va serebrovaskulyar kasalliklarni oldini olish va davolash boʻyicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun morfologik asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. *Journal Of Biomedicine And Practice*, 8(1).
2. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари. *Самарқанд–2022*, 3, 177-181.
3. Эргашевич, Қ. Б. (2024). ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ВА АХОЛИ САЛОМАТЛИГИ. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(2), 60-65.
4. Хидиров, Н. Ч. (2024). ОРОЛ ЭКОЛОГИК МУАММОСИНИНГ ИЖТИМОЙ—ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(1), 425-432.
5. Исмоилов, О. И. (2024). СОҒЛОМ АВЛОД ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 48(1), 153-157.
6. Mustafo ogli, M. Z., & Ismoilovich, I. O. (2024). HYSTOPATOLOGY OF KIDNEY TISSUE IN POLYPHARMASIA. *Journal of new century innovations*, 53(1), 104-109.
7. Мустафоев, З. М., Абдураимович, А. З., & Хидиров, З. Э. (2024). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ, СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАРАМЕТРОВ ПОЧЕК ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ аспирином, парацетамолом, ибупрофеном. *Miasto Przyszłości*, 46, 1177-1183.
8. Сулейманов, Р. И. (2024). ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 2 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ПОЛИПРАГМАЗИЯСИДА БУЙРАКЛАРНИНГ МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИНИНГ ЎРГАНИШ. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 166-172.
9. ўғли Мустафоев, З. М., & Киямов, Б. Э. (2024). 2 ТУРДАГИ ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАР МОРФОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. *SCHOLAR*, 2(6), 4-11.
10. Хидиров, З. Э., & ўғли Мустафоев, З. М. (2024). ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 3 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАР МОРФОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. *SCHOLAR*, 2(6), 12-22.
11. Мустафоев, З. М. (2024). Сравнительная характеристика морфометрических параметров почек при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 277-282.
12. Mustafo ogli, M. Z., Ismoilovich, I. O., & Ergashevich, K. B. (2024). Comparative Characteristics of the Morphometric Parameters of the Kidney in Polypharmacy with Anti-Inflammatory Drugs. *Miasto Przyszłości*, 48, 1316-1322.

13. O'G'Li, M. Z. M., & Farxodovna, X. R. (2024). BOSH MIYA SARATONI SABABLARI, BELGILARI, TASHXISLASH VA DAVOLASH. *Research Focus*, 3(1), 224-228.
14. Mustafo o'g'li, M. Z. (2023). EMFEZMATOZNI KARBOKUL. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(4), 106-110.
15. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.
16. Mustafo ogli, M. Z. (2023). OSHQOZON SARATONI-SABABLARI, ALOMATLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
17. Mustafeyevich, M. Z., Mahammad o'g'li, N. M., Zokir o'g'li, Z. M., & Mexrojidin o'g'li, B. X. (2023). INSON ORGANIZIMDA VITAMIN C YETISHMASLIGIDA UCHRAYDIGAN SINGA KASALLIGI. *Scientific Impulse*, 1(12), 271-273.
18. Mustafo o'g'li, M. Z. (2023). TIBBIYOTDA IT TEXNOLOGIYALARIDA FOYDALANIB JIGAR SERROZINI DAVOLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(4), 93-95.
19. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. *Journal Of Biomedicine And Practice*, 8(1).
20. Mustafoyev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 75-80.
21. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.
22. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари. *Самарқанд–2022*, 3, 177-181.
23. Mustafoev, Z. M., Teshaev, S. J., & Bakhronov, J. J. (2022). Features Of Kidneys Exposed to Various Factors.

24. Zafarjon, M. (2022). ANALYSIS OF POLYPRAGMASIA PREVALENCE AND MORPHOLOGICAL CHANGES OF KIDNEYS. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR*, 105-108.

25. Mustafoev, Z. M. (2021). Morphological Parameters Of Kidney In Polypragmasia With Anti-Inflammatory Drugs. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(10), 33-37.

26. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafoevich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(2), 79-82.

27. Мустафоев, З. М. Ў. (2021). Сравнительная характеристика морфологических параметров почек при полипрагматии противовоспалительными препаратами. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 622-630.

28. Мустафоев, З. М., & БАХРОНОВ, Ж. НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ. *НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО "Новый день в медицине"*, (1), 286-288.

29. Kamalova, M. I., & Ismoilov, O. I. (2020). **Morfologik o'zgarishlar bosh miya mikrotsirkulyatsiya tomirlarida gemorragik insultda.**

30. Kamalova, Malika Ilkhomovna, Islamov Shavkat Eriyigitovich, Khaidarov Nodir Kadyrovich. (2020). **Morphological Features Of Microvascular Tissue Of The Brain At Hemorrhagic Stroke.** *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 2(10), 53-59.

31. Kamalova, M. I., Khaidarov, N. K., Islamov, Sh. E. (2020). **Patomorfologik xususiyatlar gemorragik insultlar bosh miya.** *Biomedicina va amaliyot jurnali*, maxsus soni, 101-105.

32. Kamalova, M. I., Eriyigitovich, Sh. S., & Khaidarov, N. K. (2020). **Morfologik o'zgarishlar bosh miya tomirlarida ishemik insultda.** *Biomedicina va amaliyot jurnali*, 6(5).

33. Kamalova, M. I., & Khaidarov, N. K. (2020). **Miya infarkti profilaktikasi va xavf omillari (adabiyotlarni sharhlash).** *Nevrologiya va neyroxirurgiya tadqiqotlari jurnali*, 1(2).

34. Kamalova, M. I., Khaidarov, N. K., & Islamov, Sh. E. (2020). **Miya infarkti xavf omillari va profilaktikasi haqida zamonaviy tushunchalar (adabiyotlarni sharhlash).** *Nevrologiya va neyroxirurgiya tadqiqotlari jurnali*, 3(1).

35. Khaidarov, Nodir Kadyrovich, Shomurodov, Kahramon Erkinovich, & Kamalova, Malika Ilkhomovna. (2021). **Gemorragik insultda bosh miya postkapillyar venalarini mikroskopik o'rganish.** *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(08), 69-73.

36. Shomurodov, K. E. (2010). **Odontogenik flegmonlar vaqtida desne suyuqligidagi sitokin muvozanatining xususiyatlari.** *The Doctor-Aspirant*, 42(5.1), 187-192.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007323>

ЁШЛАРДА АТРОФ-МУХИТ МУХОФАЗАСИ ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ

Хуррамов Ахтам Бўриевич

Самарқанд Давлат тиббиёт Университети Анатомия кафедраси ассистенти.

xurramovaxtam@gmail.com

Аннотация. Талаба-ёшларга билим бериш жараёнидаги барча педогогик муаммолар мазмунида экологик мавзу алоҳида аҳамиятга эга бўлиб турибди, унга ҳар бир одам дуч келади, чунки атрофимизда жуда кўп экологик муаммолар бўлиб, улар кўп соҳаларга боғлиқ: табиат, ўсимликлар, ҳайвонлар ва албатта инсон, унинг организми, яшаш жойи, турмуш тарзи. Инсон экологик муаммолар билан учрашгунча атрофдаги вазиятларга эътибор бермайди. Демак, жамиятимизда ёшларни олдиндан экологик жиҳатдан тарбиялаш зарур.

Калим сўзлар: Ёшлар, атроф-муҳит, экология, табиат, маданият.

Шахснинг камолотга эришувида кўплаб маънавий омиллар қаторида унинг экологик маданиятини қарор топтириш ҳам муҳим ўрин тутади. Бошқача айтганда, ҳар томонлама камол топган шахсни унинг экологик маданиятисиз тасаввур этиш мумкин эмас. Экологик маданиятда—экологик тарбия, экологик тафаккур ва экологик одоб катта ўрин тутади. Гегелнинг фикрича, экологик тафаккур—кишилар учун биринчи навбатда тушуниш керак бўлган омилдир.

Экологик маданият умумий дунёқарашнинг таркибий қисми бўлиб, инсониятнинг ижтимоий-тарихий фаолияти жараёнида атроф-муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган моддий ва маънавий қадриятлар мажмуасидир. Инсониятнинг атроф-муҳитга муносабати маданиятини файласуфлар шартли равишда моддий ва маънавий маданият йўналишларига ажратадилар.

Инсониятнинг моддий ва маънавий маданияти ўртасидаги диалектик боғланиш ва алоқадорлик тарихий тараққиётнинг ҳаракатлантирувчи кучларидан биридир. Умуман олганда, моддий ва маънавий маданиятларнинг нисбатан мустақил мажмуалари ҳамма тарихий ривожланиш босқичларида табиатни муҳофаза қилиш эҳтиёжи билан зиддиятли бўлиб келган. Айнан шу

зиддиятнинг кучайиши экологик вазиятни кескинлаштириб, оламшумул муаммога айлантиргани сир эмас.

Табиатни муҳофаза қилиш билан моддий ишлаб чиқаришни доимий кенгайтириш ўртасидаги зиддиятнинг узлуксиз кучайиши, бир томондан, маълум даражада экологик маданиятсизлик оқибатида вужудга келган технологик қолоқликка бориб тақалади. Иккинчи томондан, бир зумлик иқтисодий фойда кетидан қувиш, иқтисодий манфаатларни устун қўйиш натижасида мавжуд экологик технологияни жорий қилмасликнинг сабаби ҳам экологик маданиятсизлик ва маъсулиясизликдир. Экологик меросга онгли, ижобий муносабат шахснинг маънавий жиҳатдан ўз-ўзини англаши ва ифодаланиши усулидир. Ўзида табиатга, унинг тарихига нисбатан эстетик, ахлоқий муносабатни тарбияламаган инсоннинг фақат табиат учун эмас, балки жамият учун ҳам фойдаси камдир. Шу нуқтаи назардан ҳам экологик моддий ва маънавий меросни ривожлантириш ижтимоий тарбия манфаатига бўйсундирилган.

Табиат муҳофазасига доир янги анъаналарни ҳаётга кенг жорий этиш экологик фаолиятнинг таркибий қисмига, амалий йўналишига айланиши лозим. Бундай анъаналар ёшларнинг экологик маданиятини, ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришга, назарий билимларини, амалий кўникмаларини мустаҳкамлашга ёрдам беради. Аҳоли ўртасида экологик тарғибот-ташвиқот, тушунтириш ишларини мунтазам равишда амалга ошириб бориш муҳим аҳамият касб этади. Шунини ҳам таъкидлаш керакки, ҳатто атроф-муҳит муҳофазасига доир етарли билимга эга бўлган шахснинг экологик сифатларини тезда шакллантириб бўлмайди. Бунинг учун экологик билимлар мажмуаси бўлган маданият ва кадриятлар жамиятнинг умумий манфаатлари билан боғланиб ҳаётий эҳтиёжларга айлансагина кутилган натижа бериши мумкин. Айтайлик, инсон табиатни муҳофаза қилишининг зарурлигини англайди, лекин кундалик фаолиятида бунга амал қилмаслигини, лоқайдлигини сабаби экологик билимларнинг эътиқодга, ахлоқий қоидага айланмаганлигига бориб тақалади.

Ҳар бир халқ ер шарининг қайси қисмида яшар экан, шу жойнинг табиати, иқлими билан боғлиқ иқтисодий, ижтимоий, маданий муносабатларга, урф одат ва анъаналарга эга бўлади. Бундай урф-одат ва анъаналар дастлаб кичик қабила, элат, миллат заминида юзага келади ва у ўзига хослиги билан ажралиб туради. Қабилалар ичидаги иқтисодий-ижтимоий муносабатлар негизида эса табиатан шаклланган муносабатлар ҳам мавжуд бўлиб, бу аслида қабиланинг ёки жамоанинг ўзи яшаб турган муҳитга муносабатидир.

Ушбу маданият албатта ўқувчиларнинг экологик таълим ва тарбияси асосида вужудга келади. Экологик таълим-тарбиянинг асосий вазифаси ёшларда

табиатга нисбатан бурч ва маъсулият, онгли муносабатни таркиб топтириш, шарқона одоб-ахлоқ меъёрларига мос хулқ-атворни шакллантириш саналади.

Экологик таълим-тарбияни амалга оширишни қуйидаги йўналишларда босқичма-босқич жорий этиш зарур:



экологик таълим-тарбия асосида ёшларнинг соғлом турмуш тарзига риоя қилиш руҳида тарбиялашни амалга ошириш лозим. экологик маданият-инсон томонидан ўз ҳаётининг табиий шароитларини ва атроф-муҳит билан ўзаро муносабатлари асосида юзага келувчи қонуниятларини англаб олиши ва улардан оқилона фойдалана билиш даражасидир. Мактабгача тарбия муассасаларидаги болаларнинг экологик таълим-тарбияси – педогогиканинг болаларни табиат билан таништириш ДТС да ўз ифодасини топган анъанавий ёндошиш, кейинги йилларда юзага келган янги бир йўналишдир. Вояга етаетган авлодни экологик тарбия муаммоси авваламбор ҳозирги замон олимларининг табиат ва жамиятдаги ўзаро боғлиқликларни диққат билан кузатишлари натижасида келиб чикди.

Ҳозирги кунда инсон ва табиатнинг ўзаро муносабатлар характери – Ер шарида ҳаётни сақлаб қолиш билан боғлиқдир. Ушбу муаммоларнинг долзарблиги, экологик ва биологик қонуниятларни ҳисобга олмаган ҳолда табиий ресурслардан фойдаланиш, саноат ишлаб чиқаришнинг тез суръатлар билан ўсиб бориши ва ниҳоят, табиатда инсон фаолияти орқали юзага келган аниқ экологик ҳавф вужудга келганлиги билан асосланади.

Айни пайтда атроф-муҳитга эҳтиёткорона, онгли, маданиятли, юксак маънавиятли муносабатни тарбиялаш масалалари барча таълим-тарбия муассасалари фаолиятида ҳам асосий ўринни эгаллаши зарур.

Ҳар қандай ўқув-тарбиявий жараён маълум қонуниятига асосланган педагогик тизим ёрдамида ифодаланади.

Ана шу нуқтаи назардан, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш маданияти, маънавияти, маърифатини амалиётга тадбиқ этишни янги яхлит педагогик, технологик тизим сифатида талқин қилиш яхши натижани беради. Айни вақтда коллеж ўқувчилари инсоннинг атроф-муҳит, биосфера, табиатга таъсир этиш йўллари, табиатнинг айрим компонент (қисм) ларига таъсир этиш натижасида юзага келадиган ўзгаришларга оид маълумотларнинг илмий асосланган тизимини эгаллашлари, атроф-муҳит муҳофазасига доир кўникмаларга эга бўлишлари керак.

Бу тизимда табиатни муҳофаза қилиш таълими ўқув юртлардаги ҳамда оммавий ахборот воситаларидаги узлуксиз жараён сифатида қаралади. У умумий

вазифалар билан интеграциялашади ҳамда касбий тайёргарлик билан боғлиқ ҳолда дифференциациялашади.

Талабада экологик маданиятнинг шаклланишидаги педагогик-психологик компонентлар

экологик билимни	экологик маданиятни
Талабаларнинг экологияга оид билим, кўникма ва тасаввурларга ега	Талабаларнинг атроф-муҳитга муносабатда бўлиш маданияти
Ўрганилган экологик билимларнинг талаба ички ҳиссини	Эгалланган экомаданият асосида атроф-муҳит, табиатга нисбатан
Эгалланган билим ва маданиятнинг амалий фаолиятга	Ўз муносабати натижасида атроф муҳитнинг муҳофаза қилиш

Экологик таълим амалиётида илғор педагогик технологиялар доирасидаги ролли-сюжетли ўйинлардан ҳам кенг фойдаланиш мумкин. Ўйин қатнашчиларини педагогик жараёнга табиий ҳолатда жалб қилган ҳолда ихтиёрийлик, эркинлик муҳити яратилади, у махсус тарзда, яъни мотивациянинг юқори даражаси, қизиқиш ва эмоционал сафарбарликни рағбатлантириш асосида рўй беради. Мусобақа ролли, имитацияли, эколого-психологик тренинг сингари экологик ўйинларнинг бутун бошли таснифлари мавжуд. Бундай ўйинларга мисол қилиб; “Танлов-марафон” экологик ўйин дарсини тавсия қилишимиз мумкин.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. *Journal Of Biomedicine And Practice*, 8(1).
2. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари. *Самарқанд–2022*, 3, 177-181.
3. Эргашевич, Қ. Б. (2024). ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ВА АХОЛИ САЛОМАТЛИГИ. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(2), 60-65.
4. Хидиров, Н. Ч. (2024). ОРОЛ ЭКОЛОГИК МУАММОСИНИНГ ИЖТИМОЙ—ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(1), 425-432.

5. Исмоилов, О. И. (2024). СОҒЛОМ АВЛОД ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 48(1), 153-157.
6. Mustafo ogli, M. Z., & Ismoilovich, I. O. (2024). HYSTOPATOLOGY OF KIDNEY TISSUE IN POLYPRAGMASIA. *Journal of new century innovations*, 53(1), 104-109.
7. Мустафоев, З. М., Абдураимович, А. З., & Хидиров, З. Э. (2024). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ, СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАРАМЕТРОВ ПОЧЕК ПРИ ПОЛИПРАГМАЗИИ аспирином, парацетамолом, ибупрофеном. *Miasto Przyszłości*, 46, 1177-1183.
8. Сулейманов, Р. И. (2024). ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 2 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ПОЛИПРАГМАЗИЯСИДА БУЙРАКЛАРНИНГ МОРФОМЕТРИК ПАРАМЕТРЛАРИНИНГ ЎРГАНИШ. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 166-172.
9. ўғли Мустафоев, З. М., & Киямов, Б. Э. (2024). 2 ТУРДАГИ ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАР МОРФОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ. *SCHOLAR*, 2(6), 4-11.
10. Хидиров, З. Э., & ўғли Мустафоев, З. М. (2024). ЯЛЛИҒЛАНИШГА ҚАРШИ 3 ТУРДАГИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАР МОРФОМЕТРИК КЎРСАТКИЧЛАРИГА ТАЪСИРИ. *SCHOLAR*, 2(6), 12-22.
11. Мустафоев, З. М. (2024). Сравнительная характеристика морфометрических параметров почек при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 277-282.
12. Mustafo ogli, M. Z., Ismoilovich, I. O., & Ergashevich, K. B. (2024). Comparative Characteristics of the Morphometric Parameters of the Kidney in Polypharmacy with Anti-Inflammatory Drugs. *Miasto Przyszłości*, 48, 1316-1322.
13. O'G'Li, M. Z. M., & Farxodovna, X. R. (2024). BOSH MIYA SARATONI SABABLARI, BELGILARI, TASHXISLASH VA DAVOLASH. *Research Focus*, 3(1), 224-228.
14. Mustafo o'g'li, M. Z. (2023). EMFEZMATOZNI KARBOKUL. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(4), 106-110.
15. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.
16. Mustafo ogli, M. Z. (2023). OSHQOZON SARATONI-SABABLARI, ALOMATLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
17. Mustafeyevich, M. Z., Mahammad o'g'li, N. M., Zokir o'g'li, Z. M., & Mexrojiddin o'g'li, B. X. (2023). INSON ORGANIZIMDA VITAMIN C

YETISHMASLIGIDA UCHRAYDIGAN SINGA KASALLIGI. *Scientific Impulse*, 1(12), 271-273.

18. Mustafo o'g'li, M. Z. (2023). TIBBIYOTDA IT TEXNOLOGIYALARIDA FOYDALANIB JIGAR SERROZINI DAVOLASH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(4), 93-95.

19. Oglu, M. Z. M., & Zokirovna, O. A. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПАРАМЕТРЫ ПЕЧЕНИ БЕЛЫХ БЕСПОРОДНЫХ КРЫС, ПЕРЕНЕСШИХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНУЮ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВУЮ ТРАВМУ ПОСЛЕ МЕДИКАМЕНТОЗНОЙ КОРРЕКЦИИ. *Journal Of Biomedicine And Practice*, 8(1).

20. Mustafoev, Z. (2023). COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF THE MORPHOMETRIC PARAMETERS OF THE KIDNEY IN POLYPHARMACY WITH ANTI-INFLAMMATORY DRUGS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 75-80.

21. Мустафоев, З. М., Абдураимов, З. А., & Мавлонкулова, Д. М. (2023). МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛОВ НЕФРОНА КРЫС И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ ЭФФЕКТА ПОЛИПРАГМАЗИИ ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ. *Research Focus*, 2(11), 119-123.

22. Мустафоев, З. М., Бахронов, Ж. Ж., & Хидиров, З. Э. (2022). Яллиғланишга қарши дори воситалари полипрагмазиясида буйрак нефронларида рўй берадиган морфометрик ўзгаришлар. Биология ва тиббиёт муаммолари. *Самарқанд–2022*, 3, 177-181.

23. Mustafoev, Z. M., Teshae, S. J., & Bakhronov, J. J. (2022). Features Of Kidneys Exposed to Various Factors.

24. Zafarjon, M. (2022). ANALYSIS OF POLYPRAGMASIA PREVALENCE AND MORPHOLOGICAL CHANGES OF KIDNEYS. *YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR*, 105-108.

25. Mustafoev, Z. M. (2021). Morphological Parameters Of Kidney In Polypragmasia With Anti-Inflammatory Drugs. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(10), 33-37.

26. Norbekovich, T. B., Oblakulovich, K. S. O. S., Sadinovich, U. S., Mustafoevich, M. Z., & Akhmadjonovich, S. S. (2021). Polypragmasia as a risk factor causing complications in viral infection. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(2), 79-82.

27. Мустафоев, З. М. Ў. (2021). Сравнительная характеристика морфологических параметров почек при полипрагмазии противовоспалительными препаратами. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 622-630.

28. Мустафоев, З. М., & БАХРОНОВ, Ж. НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ. *НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО "Новый день в медицине"*, (1), 286-288.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007330>

SAKSOVUL – EKOLOGIK MUVOZANAT KALITI

Murodova Hilola Umarqulovna

“Buxoro davlat texnika universiteti” Hidrologiya va ekologiya kafedra o‘qituvchisi

khilolamurodova08@gmail.com

Aslonova Muhabbat Qobil qizi

“Buxoro davlat texnika universiteti” (E va AMM) 2 kurs 1-guruh talabasi

khilolamurodova08@gmail.com

Annotatsiya. Saksavul – qurg‘oqchil hududlarda o‘sovchi, cho‘l va yarim cho‘llarga xos bo‘lgan o‘simlik turi. U Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada keng tarqalgan. Saksavulning asosiy xususiyati – uning qattiq yog‘ochga ega bo‘lishi va sho‘r hamda quruq tuproqlarga chidamliligidir. U shamol eroziyasini kamaytirishda, qumlarni mustahkamlashda muhim ekologik rol o‘ynaydi. Shuningdek, saksavul o‘tin sifatida va chorva mollari uchun yemish sifatida ham qo‘llaniladi. Uning ildiz tizimi chuqur joylashgan bo‘lib, suvni uzoq muddat saqlab qolish xususiyatiga ega. Bu o‘simlik cho‘l ekotizimini saqlashda va ekologik muvozanatni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Saksovulning ildizlari qumni bir joyda ushlab turadi va barxanlarning oldinga siljishini sekinlashtiradi. Chorvachilik uchun ozuqa sifatida uning barglari deyarli bo‘lmasa-da, novdalari tuyalarga ozuqa bo‘lib xizmat qiladi. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda saksovul karbonat angidridni o‘zlashtirib, havo sifatini yaxshilaydi va cho‘llanishning oldini olishga yordam beradi. Saksovulning amaliy foydasi yoqilg‘i sifatida ishlatilsa, yog‘ochi juda qattiq va uzoq yonadi, shuning uchun qadimdan yoqilg‘i sifatida ishlatilib kelinadi. Dorivor ahamiyati shundaki, saksovul tarkibida ayrim shifobaxsh moddalar bo‘lib, xalq tabobatida qo‘llaniladi. Qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun ayrim joylarda saksovul qumli tuproqlarda shamol to‘siqlari yaratish uchun ekiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik muvozanat, eroziya, ekotizm, barxan, shuvoqguldoshlar, assimillatsiya, butasimon, qurg‘oqchil, tangachasimon, Zaysan saksovuli, “Yashil qoplama”.

Abstract. *Saxaul is a plant species that grows in arid regions, characteristic of deserts and semi-deserts. It is widely distributed in Central Asia, the Middle East, and North Africa. The main feature of saxaul is its hard wood and its ability to withstand salty and dry soils. It plays a significant ecological role in reducing wind erosion and stabilizing sand dunes. Additionally, saxaul is used as firewood and as fodder for livestock. Its root system is deeply embedded, possessing the ability to retain water for extended periods. This plant is of great importance in preserving desert ecosystems and maintaining ecological balance. Saxaul's roots hold the sand in place and slow the movement of barchans (crescent-shaped dunes). Although its leaves are almost non-existent as a livestock feed, its branches serve as food for camels. In the fight against climate change, saxaul absorbs carbon dioxide, improving air quality and helping to prevent desertification. The practical benefit of saxaul is that when used as fuel, its wood is very hard and burns for a long time, so it has been used as fuel since ancient times. Its medicinal value is that saxaul contains some healing substances and is used in folk medicine. For agricultural use, in some places saxaul is planted to create windbreaks on sandy soils.*

Keywords: *ecological balance, erosion, ecotism, barren land, wormwood, assimilation, shrubby, arid, thorny, Zaisan saxifrage, "Green cover".*

KIRISH. Saksovul – Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va boshqa qurg'oqchil hududlarda o'suvchi noyob o'simlik bo'lib, u tabiat va inson hayotida muhim o'rin tutadi. Saksavullar (odatda o'zbek tilida "saksaul" deb ataladi) cho'l va yarim cho'l hududlarida o'sadigan o'simliklar bo'lib, ekologik muvozanatni saqlash va tiklashda muhim rol o'ynaydi. Ular asosan Markaziy Osiyo, xususan, Qizilqum va Qoraqum kabi cho'llarda keng tarqalgan. Saksavullar cho'l hududlarida qum ko'chishini kamaytirish orqali ular tabiiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Suv rejimini tartibga solishda saksavullar suvni tejankorlik bilan ishlatadi va o'z atrofidagi mikroiklimni yaxshilaydi. Ularning soyasi tuproq yuzasida namlikni saqlashga yordam beradi, bu esa boshqa o'simliklarning o'sishi uchun qulay sharoit yaratadi. Biologik xilmaxillikni qo'llab-quvvatlashda saksavullar cho'ldagi hayvonlar, hasharotlar va boshqa o'simliklar uchun yashash joyi va oziq-ovqat manbai hisoblanadi. Masalan, ular qushlar va kemiruvchilar uchun boshpana bo'lib xizmat qiladi. Karbon sekvestratsiyasi- bu saksavullar uglerod dioksidini o'zlashtirib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda kichik, ammo muhim hissa qo'shadi. Bu jarayon cho'l ekotizimlarida barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Cho'lni yashil qilishda saksavullar cho'llanish jarayoniga qarshi turadi va odamlar tomonidan degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklashda ishlatiladi. Ular qurg'oqchilikka chidamli bo'lgani uchun tabiiy qayta tiklash loyihalarida muhim o'rin tutadi. Saksavullar nafaqat cho'l landshaftining

ajralmas qismi, balki uning ekologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Bu o'simlik qum barxanlarini mustahkamlash, chorva mollari uchun ozuqa manbai bo'lish hamda yoqilg'i sifatida ishlatilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Saksovulning biologik xususiyatlari shuvoqguldoshlar oilasiga mansub daraxtsimon yoki butasimon o'simlik bo'lib, uning ikki turi keng tarqalgan: qora saksovul va oq saksovul. Bu o'simlik asosan qumli va sho'r yerlarda o'sadi, kuchli ildiz tizimi esa uni suv tanqisligiga bardoshli qiladi. Saksovulning ekologik ahamiyati cho'llarni yashillashishi va eroziyani oldini olishda saksovulning ildizlari qumni bir joyda ushlab turadi va barxanlarning oldinga siljishini sekinlashtiradi.

Mavzuning dolzarbligi. Saksovul turkumiga daraxt va butalar kiradi. Barglari tangachasimon, qarama-qarshi o'rnashgan, ba'zan bargsiz, assimillatsiya vazifasini asosan bir yillik yosh novdalari bajaradi. Gullari mayda 2 jinsli. Novdalari yozning issiq kunlaridan sentyabrning boshigacha o'sishdan to'xtaydi va yozgi tinim davrini o'taydi. Sentabr-oktabr oylarida o'sish va rivojlanishi davom etadi, mevasi pishib yetiladi. Saksovullarning umuman 5 turi mavjud, shundan O'zbekistonda 3 turi tarqalgan. Oq saksovul, bo'yi 4-5 metrcha keladigan buta yoki daraxt, po'stlog'i och kulrang. O'rta Osiyodagi qumliklarda keng tarqalgan. Qora saksovul, balandligi 6-7 metrcha yetadigan bargsiz yoki qipiqsimon bargli daraxt, po'stlog'i to'q kulrang-qoramtir. O'zagi jigarrang, qattiq, og'ir, suvda cho'kadi. Qora saksovul qumli sho'rxok cho'llarda o'sadi. U cho'lda o'rmon hosil qiluvchi eng yirik o'simlikdir. Yog'ochi a'lo sifatli yoqilg'i. Ikkala turdan ham ixota daraxtzorlari tashkil etishda foydalaniladi. Zaysan saksovuli 1-2 metrcha keladigan buta, asosan Ustyurtda tarqalgan. Saksovulning yashil novdalari organik modda to'plashga xizmat qiladi. 1 yillik yosh novdalarining ko'p qismi kuzda, ayniqsa, sovuq tushishi bilan to'kilib ketadi, ozroq qismi esa yog'ochga aylanib saqlanib qoladi. Apreldan gullay boshlaydi, oktabrda urug'laydi. Osiyo (O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Xitoy, Mongoliya)da 10 turi uchraydi. O'zbekistonning Qizilqum cho'llarida o'rmonlarni hosil qiluvchi asosiy turlari – oq va qora saksovuldir. Qora saksovul (inglizcha: *Haloxylon aphyllum*) – bargsiz buta yoki daraxt, balandligi 4-9 (12)m gacha. Asosan, Osiyoning cho'l va chala cho'llarida, sho'rxok yerlarda, sho'rlangan qumlarda, taqirlarda ko'p tarqalgan. Urug'idan ko'payadi. Yo'llarda ixotazorlar barpo etishda foydalaniladi. Qora saksovul katta daraxtzorlar hosil qiladi, oq saksovulning tana va shox-shabbasi qoramtir bo'lishi, bargining tuzilishi bilan ajralib turadi. Oq saksovul (inglizcha: *Haloxylon persicum*) – yirik buta. Balandligi 2,5-6 m. Ildizi 10-11 m chuqurlikka boradi. Qozog'iston, O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni, G'arbiy Xitoyning cho'l va sahrolarida o'sadi. Oq saksovul qumliklarni mustahkamlash uchun ekiladi. Zaysan saksovul (inglizcha: *Haloxylon ammodendron*) turi Qoraqalpog'istonning ayrim joylari (Ustyurt)da uchraydi. Saksovulning xalq

xo'jaligida ahamiyati katta. Undan, asosan, o'tin (yoqilg'i), qo'ylar va tuyalar uchun to'yimli ozuqa, qumlarni mustahkamlovchi, shamolni to'suvchi vosita sifatida foydalaniladi. Saksovul o'rmonlari tuproqni eroziyadan saqlashda muhim o'rinda turadi. Saksovul 50-60 yil yashaydi. Asosan, urug'idan ko'payadi va 5-7-yili normal urug'lay boshlaydi. O'rta Osiyo va Qozog'istonda saksovul o'rmonlari 22 mln. ga atrofida. O'zbekistonda Saksovul o'rmonlari 1229 ming ga, shundan oq saksovul 976 ming ga, qora saksovul 253 ming ga ni egallaydi. Saksovulning xalq xo'jaligida ahamiyati katta. Undan, asosan, o'tin (yoqilg'i), qo'ylar va tuyalar uchun to'yimli ozuqa, qumlarni mustahkamlovchi, shamolni to'suvchi vosita sifatida foydalaniladi. Saksovul o'rmonlari tuproqni eroziyadan saqlashda muhim o'rinda turadi. Saksovul 50-60 yil yashaydi. Asosan, urug'idan ko'payadi va 5-7-yili normal urug'lay boshlaydi. O'rta Osiyo va Qozog'istonda saksovul o'rmonlari 22 mln. ga atrofida. O'zbekistonda Saksovul o'rmonlari 1229 ming ga, shundan oq saksovul 976 ming ga, qora saksovul 253 ming ga ni egallaydi. O'zbekistonda cho'l va yaylovlarga ekish uchun 1991-yilda chiqarilgan Nortuya navi rayonlashtirilgan. So'nggi yillarda saksovulni ko'paytirish maqsadida bir qator o'rmon xo'jaliklari tashkil etilib, sun'iy saksovulzorlar barpo qilinmoqda. Bir tup saksovul o'simligi to'rt tonna ko'chuvchi qumni to'xtata oladi Soha vakillarining tavsiyalariga ko'ra, saksovul urug'ini aynan kuz va qish oylarida ekkan maqsadga muvofiqdir. Chunki urug' qish bo'yi qor, yomg'ir suvi ostida yotadi va bahorda o'sib chiqishi uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi. Ekishga tayyorlangan maydonlarga darhol urug' sepish yoki ko'chat o'tqazish yaxshi samara bermaydi. Chunki tuproq sho'r, ekilgani bilan tuz o'ldirib tashlaydi. Shuning uchun ekish uchun qazilgan ariqlar ma'lum bir vaqt talab qiladi. U ariqlarga shamol yordamida unumdor tuproq kelib joylashganidan keyin ekish mumkin. Bahorda asosiy ishimiz ko'chat o'tqazish bo'ladi. Aynan Orolning qurigan maydonidagi saksovullar orasiga yovvoyi hayvonlar va chorva uchun ozuqabop ekinlar ham ekilmoqda. Bugungi kunda Xorazm davlat o'rmon xo'jaligida joriy yilda "Yashil qoplama" lar barpo etish maqsadida saksovul urug'ini tayyorlash jarayoni boshlab yuborildi. Mutaxassislarning so'zlariga ko'ra, saksovulzorlar barpo etish orqali ko'chma qumlar mustahkamlanadi, cho'llanish jarayoni sekinlashadi, uning ta'sirida yer ustki qismida shamolning tezligi kamayadi, chang to'zonlari bo'lib havoga tuz va qum zarrachalarini ko'tarilishi to'xtaydi. 7 yoshli saksovulzorda shamol tezligi butunlay to'xtaydi. Bir tup saksovul o'simligi to'rt tonna ko'chuvchi qumni tuxtata oladi. 1 gektar saksovulzor yil davomida 1135 kg karbonat angidrid gazini yutib 835 kg kislorod ajratadi. Bu esa havo tarkibini yaxshilaydi, atrof muhitni ifloslanishiga chek qo'yiladi. Jahon bo'ylab saksovulning 11 turi aniqlangan. O'rta Osiyoning cho'l hududlarida saksovulning asosan 3 turini uchratish mumkin.

XULOSA. Saksovul – cho‘l ekotizimining ajralmas qismi bo‘lib, ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Uning tabiiy boylik sifatida asrab-avaylanishi va yetarli miqdorda ekilishi cho‘llanishning oldini olish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, bu o‘simlikni muhofaza qilish va ko‘paytirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Saksavullar nafaqat cho‘l landshaftining ajralmas qismi, balki uning ekologik barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir. Saksovulning yashil novdalari sahrodagi tuyalar, qoramollar, qo‘y-echkilar uchun qimmatli ozuqa bo‘lsa, tanasi va shoxlaridan o‘tin sifatida foydalaniladi. Saksovulning 20-25 yasharini kesilsa, ildiz bachkilaridan tez tiklanadi. Faqat bu ishni o‘rmon xo‘jaligi mutaxassislari tomonidan qish faslida, ya‘ni daraxtlar mo‘rt va ildiz bo‘g‘zidan sinadigan paytda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Afsuski ayrim fuqarolar qishga o‘tin g‘amlash maqsadida yosh saksovul daraxtlariga ham qiron keltiradi. Nurota davlat o‘rmon xo‘jaligida 2024 yil uchun Aydarko‘l o‘rmon bo‘limida saksavul ko‘chatxona uchun 5 gektar yer maydonni tayyorlandi va ekish ishlari bajarilmoqda. Mutaxassislarning so‘zlariga ko‘ra, saksovulning yana bir ahamiyatli tomoni uning ildizlari qum barxanlarining shamolda ko‘chib yurishining oldini oladi. Bitta saksovul bir yilda 4-4,5 tonnagacha qum barxanlarini ushlab qolar ekan. Ayniqsa Orol dengizi qurishi oqibatida paydo bo‘lgan ulkan sahrodagi qum ko‘chishi, tuzli chang-to‘zonlarning osmonga ko‘tarilishining oldini olish uchun saksovulzorlar barpo etish eng maqbul yo‘l sanaladi. Saksovulning atrof-muhit havosi musaffoligini ta‘minlashda ham xizmati juda katta. Bir gektar maydondagi to‘rt yillik saksovulzor 1158 metr kub kislorod ajratib chiqarishini e‘tiborga olsak, buni bimalol **“toza havo fabrikasi”** deb atash mumkin

Adabiyotlar ro‘yxati

1. To‘xtayev, A. va boshqalar. O‘zbekiston o‘simliklari. - Toshkent: Fan, 1980.
2. Safarov, I. Qizilqum ekologiyasi va tabiiy resurslari. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
3. Abdullayev, X. Cho‘l landshaftlari va ularning o‘simliklari. - Toshkent: Universitet, 1998.
4. Mirzayev, S. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
5. Qodirov, R. O‘simliklar ekologiyasi asoslari. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2015.
6. O.E. Eshonqulov, J. H. Hamidov, A.A. Bekmuhamedov. Biologiya. Toshkent – 2006.

7. Berdax Jienbayev Kalbay o'g'li. Saksovullarni saqlash: O'zbekiston Respublikasida huquqiy, ekologik va ijtimoiy asoslar. World Scientific Research Journal, 2024-yil, 31-jild, 1-son, 36-40-betlar.
8. Temur Eshboyev. Saksovulzorlar muvozanati. Xalq so'zi gazetasi, 2021-yil 3-dekabr.
9. "Qason saksovul". Moluch ilmiy jurnali, 2020-yil
10. Belolipov I.V., Tuxtayev B.Yo., Qarshiboyev H.Q. —O'simliklar introduktsiyasi fanidan o'quv qo'llanma. — Guliston, 2015. - 36 b.
11. S. M. Mustafayev, O.A. Ahmedov Botanika, Toshkent, 2006.
12. Ikramov M.I., Normurodov X.N., Yuldashev A.S. Botanika. Toshkent. «Ozbekiston». 2002.
13. Xrjanovskiy V. T. Kurs obshey botaniki, M.: Visshaya shkola, 1982.
14. To'xtayev A. O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi. Toshkent, 1994.
15. Yoziyev L.X. Botanika. Qarshi: Nasaf, 2006.
16. Ergashev A., Ergashev T., Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T, "Yangi asr avlodi", 2005 – 430 b.

Internet manbalari:

- www.uznature.uz
- www.econews.uznature.uz
- <http://www.ecocenter.uz/uz>
- <http://www.travelgroup.ru/ecotourism><http://www.geographia.com/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007349>

OG'IR METALLARNING ATROF MUHITGA VA INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

Gulboyeva Dilafruz Ruziboyevna

Qarshi davlat universiteti, o'qituvchisi
E-mail: gulboyevadilafruz82@gmail.com

Rasulova Oydinoy Rashid qizi

Qarshi davlat universiteti, talabasi
E-mail: oo9735986@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda, xususan, eritmalar tarkibidan og'ir metallarni tanlab ajratib olishda hamda sanoat chiqindi suvlarni og'ir metallardan tozalash uchun qo'llaniladigan sorbentlarni olish bo'yicha ma'lum ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, mis va ruxni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko'paytirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, organik reagentlarni immobillash asosida tanlovchan sorbentlar olish va ular yordamida d-metallar sorbsiyasida hosil bo'ladigan kompleks birikmalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mis, rux, og'ir metallar, d-metallar RECHM, sorbent, kompleks birikmalar.

IMPACT OF HEAVY METALS ON THE ENVIRONMENT AND THE HUMAN BODY

Abstract. In Uzbekistan, certain scientific and practical results are achieved in the production of products of the chemical industry, in particular, in the selective extraction of heavy metals from the composition of solutions, as well as in the extraction of sorbents applied to the treatment of industrial wastewater from heavy

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni

metals. The development strategy of the new Uzbekistan sets out important tasks for "broad introduction of innovations to the economy, development of cooperative relations of industrial enterprises and science institutions, increase the range of high value-added products at the expense of deep processing of copper and zinc." In this regard, it is important to obtain selective sorbents based on the immobilization of organic reagents and to research the complex compounds formed by them in the d-metal sorption.

Keywords: *copper, zinc, heavy metals, D-metals RECHM, sorbent, complex compounds.*

Kirish. Atrof-muhitda past konsentratsiyaning ta'siri (RECHM kamayganda):

1. O'simliklarga zarar: Mis va ruxning miqdori normadan past bo'lsa, o'simliklar ferment faoliyati uchun zarur bo'lgan mikroelementlardan mahrum bo'ladi. Bu o'simliklar o'sishi va rivojlanishida sekinlashuvga olib keladi.

Yer usti va yer osti suvlarini og'ir metallar bilan ifloslantiruvchi manbalar – ishlab chiqarish sanoati korxonalari hisoblanadi. Og'ir metallar o'g'itlar va pestitsidlar tarkibida ham uchraydi va qishloq xo'jalik dalalarining oqovalari bilan suv havzalariga tushishi mumkin.

Rux (Zn) mikroelementi organizmda muhim vazifalarni bajaradi, masalan: immunitetni mustahkamlash, hujayralarning o'sishi, fermentlar faoliyati, va zichtirilgan to'qimalarni yaratish. Ammo uning organizmda kam yoki ortiqcha bo'lishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Rux yetishmovchiligi (gipozinkemiya). Immunitet zaifligi – infeksiyalarga moyillik oshadi. O'sish va rivojlanishning sekinlashishi – bolalarda o'sish kechikishi kuzatiladi. Teri muammolari – teri quruqligi, ekzema yoki yaralar. To'qimalarning tiklanishi sekinlashadi – jarohatlar uzoq vaqt davomida bitmaydi. Ahvolning yomonlashishi – ichak muammolari, ishtaha yo'qolishi. Hissiyot buzilishlari – ta'm yoki hid sezish qobiliyati yomonlashadi.

Rux ortiqcha bo'lishi (giperzinkemiya): Toksik ta'sir – ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i. Immun tizimiga zarar – yuqori dozalar immunitetni sustlashtirishi mumkin. Mikroelement muvozanatining buzilishi – mis va temirning yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Asab tizimiga ta'sir – charchoq, asabiylik, va diqqat buzilishlari. Rux normasi: Kattalar uchun tavsiya etilgan kunlik miqdor: 8–11 mg. Ortiqcha dozalar: kunlik 40 mg dan oshmasligi lozim. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, rux yetishmovchiligini yoki ortiqcha bo'lishini oldini olish uchun turli-tuman va muvozanatli ovqatlanish muhimdir. Rux manbalariga mol go'shti, baliq, tuxum, kabak urug'lari, va yong'oqlar kiradi. Agar diyetadan yetarli miqdorda rux olinmasa, shifokor tavsiyasiga binoan qo'shimchalar qabul qilish mumkin.

Mis (Cu) ham muhim mikroelementlardan biri bo'lib, u organizmda bir qator

1 - jadval

Odam organizmiga bir kecha kunduzda kirishi zarur bo'lgan elementlar

Kimyoviy element, (mg)	Katta odam	Bolalar	Kimyoviy element, (mg)	Katta odam	Bolalar
K	2000-5500	530	Cr	0,05-0,2	0,04
Na	110-3300	260	Co	0,2 (vitaminV12)	0,001
Ca	800-1200	420	Cl	3200	470
Mg	300-400	60	PO ₄ ³⁻	800-1200	210
Zn	15	5,0	SO ₄ ²⁻	10	-
Fe	10-15	7,0	J	0,15	0,07

2-jadval

Tuproqdagi kimyoviy moddalarning yo'l qo'yilgan konsentratsiyalari
miqdorlari

Moddalar nomi	Xavflilik sinfi	PDK ymymiy miq-dori, fonni hisobga olib mg/kg	Harakatchan PDK shak-li, mg/kg
Benzapiren	1	0,02	-
Benzin	3	0,1	-
Vanadiy	3	150	-
Simob	1	0,2	-
Qo'rg'oshin	1	32	6
Nikel	2	20	4
Mis	2	33	3
Mishyak	1	2	-
Kadmiy	1	0,5	-
Kobalt	2	-	5
Rux	1	55	23

biologik jarayonlarda ishtirok etadi. Masalan, qon hosil bo'lishi, fermentlar faoliyati, nerv tizimi va immunitetni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Ammo misning organizmda yetishmovchiligi yoki ortiqcha bo'lishi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mis yetishmovchiligi (gipokupremiya):

3-jadval

Oziq-ovqat xom-ashyo va mahsulotlaridagi kimyoviy elementlarning
yoʻl qoʻyilgan konsentratsiyalari

Oziq-ovqat mahsulotlari	R	Cd	As	Hg	Cu	Zn
Donli	0,5	0,1	0,2	0,03	10	50
Dukkakli donli	0,5	0,1	0,3	0,03	10	50
Toza sabzavot va toza muzlatilgan	0,5	0,03	0,2	0,02	5	10
Mevalar, toza rezavor va toza muzlatilgan	0,4	0,03	0,2	0,02	5	10
Goʻsht va toza parranda va muzlatilgan	0,5	0,005	0,1	0,03	5	70
Choy	10	1.0	1	0,1	100	-

Qon kamchilik (anemiya): Gemoglobin ishlab chiqarish susayishi sabab qon kamchilik yuzaga keladi. Suyak muammolari: Suyaklarning zaifligi yoki rivojlanishning buzilishi. Immunitet pasayishi: Infeksiyalarga moyillik oshadi. Nerv tizimi muammolari: Asabiylik, diqqat susayishi, va asab tolalari shikastlanishi. Oʻsish va rivojlanishning buzilishi: Bolalarda oʻsish va jismoniy rivojlanish kechikishi. Teri va soch muammolari: Sochlar tushishi yoki oqarishi, terining rangi oʻzgarishi. Mis ortiqcha boʻlishi (giperkupremiya): Zaharlanish: Qusish, koʻngil aynishi, diareya, va qorin ogʻrigʻi. Jigar va buyraklarga zarar: Jigar yoki buyrak funksiyasining buzilishi. Asab tizimiga taʼsir: Haddan tashqari charchoq, depressiya, yoki asabiylik. Vilson kasalligi: Genetik muammolar tufayli mis organizmda toʻplanib, jigar va miyaga zarar yetkazadi. Oksidlovchi stress: Erkin radikallar koʻpayishi sabab hujay-ralarga zarar keladi. Mis normasi: Kattalar uchun kunlik ehtiyoj: 0.9 mg. Ortiqcha dozasi: kunlik 10 mg dan oshmasligi lozim. Mis manbalari: Tabiiy manbalar: Jigar, mol goʻshti Baliq, mollyusklar yongʻoqlar, urugʻlar Quruq mevalar (masalan, mevali quritmalar). Qora shokolad. Yuqoridagi maʼlumotlardan shunday xulosa qilishimiz mumkin mis organizm uchun zarur, ammo uning yetishmovchiligi yoki ortiqcha boʻlishining oldini olish uchun muvozanatli ovqatlanish juda muhim. Agar mis yetmaydigan boʻlsa, tabiiy manbalar yoki shifokor tavsiyasi bilan isteʼmol qilinadi Ogʻir metallar bilan ifloslangan tuproqlarda muayyan sharoitlarni eʼtiborga olib, quyidagi ekinlarni yetishtirish mumkin: boshqli don, dukkakli oʻtlar, kartoshka, karam, pomidor, gʻoʻza, qand lavlagi.

Og'ir metallarni vegetativ organlarida yig'ishga layoqatli o'simliklar yordamida tuproqni rekultivatsiyalash (fitorekultivatsiya). Vegetatsiya davrida daraxt avtomobil yo'li yoqasida o'ziga 130 kg benzindagi qo'rg'oshin miqdoriga teng miqdorda qo'rg'oshin miqdorini yig'adi, shuning uchun ifloslangan rayondagi aholi punktlarida tushgan barglarni yig'ib olish va yo'qotish maqsadga muvofiq. Tuproqlarni rux, qo'rg'oshin va kadmiydan tozalash uchun ulkan, katta qalampir, qo'rg'oshin va xromdan – gorchitsa, nikeldan – grechixa va h.k. (5-jadval), radioaktiv izotoplar bilan ifloslanganda no'xat, beda, tamakidan foydalanish mumkin. Tuproqdagi og'ir metallar harakatchanligini boshqarish. O'simliklar tomonidan og'ir metallarning yutilishi ularning tuproqdagi harakatlanuvchi shakllarining miqdoriga bog'liq. Harakatlanuvchi shakllarning mavjudligi tuproq xossalari va unumdorligi, biogeoximik jarayonlar, tuproqqa og'ir metallarning kirishi intensevligi va hajmlari, o'simliklar bilan chiqarilishi aniqlanadi. Tuproqda og'ir metallarning o'zini tutishi va ularni boshqarish usullari geoximik to'siqlar nazariyasidan kelib chiqadi, ifloslangan tuproqlarni rekultivatsiyalash esa qo'shimcha to'siqlar yaratish, mavjyd to'siqlarni boshqarish yoki ularning ayrimlarini kuchsizlantirishdan iborat.

Mexanik tarkibi bo'yicha og'ir va yuqori unumdorlikka ega bo'lgan tuproqlarda yengil va kam unumdor tuproqlarga qaraganda og'ir metallarning harakatlanuvchi shakllari kam uchraydi. Havflilikning birinchi sinfigiga kiruvchi ko'pchilik metallar neytral tuproq muhitida qiyin eriydigan birikmalar, nordon tuproq muhitida esa yengil eriydigan birikmalar hosil qiladi. Kadmiy nordor muhitda ko'proq harakatchan, neytral va ishqorli muhitda kuchsiz harakatchandir. Nordon muhitda harakatchan kimyoviy birikmalar tarkibida Zn, Cu, Pb, Cd, Sr, Mn, Ni, Co va boshqa kationlari bo'lgan birikmalari kiradi. Neytral va ishqorli muhitda harakatchanlarga – Mo, Cr, As, V, Se birikmalari kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Choriev J., Muratov A., Yangiev A., Muratov O., Karshiev R. Design method for reinforced concrete structured usability with the use of safety coefficient by service life period. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1),0120242020.
2. Choriev J., Muratov A., Yangiev A., Muratov O., Karshiev R. Design method for reinforced concrete structure durability with the use of safety coefficient by service life period. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1),0120242020.
3. Интернет: <https://teletype.in/@uzbekneftegaz/V43fThgOcYD>;
4. Интернет: <https://teletype.in/@uzbekneftegaz/WcuMPrR3gMZ>

5. Иванов В.М., Антонова Е.В., Ускова Е.Н. Сорбционное концентрирование меди, свинца и железа на носителях, модифицированных 8-гидроксихинолином и его производными // Вестник Московского университета. Серия 2: Химия. –2009. –№3. –169-181 б.

6. Басаргин Н. Н., Оскотская Э.Р., Грибанов Е.Н., Розовский Ю.Г. Закономерности комплексообразования в ряду сорбентов на полистирольной матрице и их комплексов с хромом(III) и марганцем(II) // Журнал неорганической химии. –2011. –Т. 56. –№ 2. –С.348 –352.

7. Кутырева М. П., Старикова М.С., Улахович Н.А., Черкасов Р.А., Забиров Н.Г., Соколов Ф.Д. Сорбционное извлечение и концентрирование Ni(II), Zn(II), Cd(II) на нитроцеллюлозных мембранах, модифицированных п-ациламинофосфатами // Журнал аналитической химии. –2010. –Т.65. –№2. –140-146 б.

8. Басаргин Н.Н., Оскотская Э.Р., Карпушина Г.И., Розовский Ю.Г. Групповое концентрирование и определение цинка, кадмия и свинца при анализе питьевых и природных вод // Заводская лаборатория. –1999. –Т.65. –№12. –9-13 б.

9. Кичигин О. В. Сорбционное концентрирование микроколичеств Sr(II) при анализе природных, питьевых и технологических вод // Сорбционные и хроматографич. процессы. –2005. –Т.5. –№3. –319 б.

10. Захарченко Е.А., Моходоева О.Б., Мясоедова Г.В. Использование волокнистых «наполненных» сорбентов для динамического концентрирования благородных металлов // Сорбционные и хроматографические процессы. –2006. –Т.6. –№2. –233-241 б.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007362>

QASHQADARYO VILOYATI SUV XAVZALARI SUVINING KIMYOVIY TAHLIL NATIJALARI HAMDA MIS IONLARI BILAN IFLOSLANISHINI MONITORINGI

Gulboyeva Dilafruz Ruziboyevna

Qarshi davlat universiteti, o'qituvchi

E-mail: gulboyevadilafruz82@gmail.com

Zogitova Zarina Shovkatjon qizi

Qarshi davlat universiteti, talaba

E-mail: zarina.zogitova@gmail.com

Shavkatova Dilnoza Shavkat qizi

Qarshi davlat universiteti, talaba

E-mail: dilnozashavkatova42@gmail.com

***Annotatsiya.** Hozirgi kunda antropogen ifloslanish hisoblanuvchi zaharli metallarning atrof-muhitga tarqalishi, ekologik muammolarning sezilarli darajada ortishiga sabab bo'lmoqda. Atrof-muhitga tarqalgan og'ir va zaharli metallarni miqdorini nazorat qilish muhim ekologik-tahliliy vazifadir. Shu jumladan, mis ionlarini atrof-muhit ob'ektlaridan analitik reagentlar yordamida aniqlashning selektiv, qayta takrorlanuvchi, sezgir zamonaviy uslublarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Respublikamizda og'ir va zaharli metallarni aniqlashning sorbtsion-spektroskopik usullarni rivojlantirish muhimdir hamda hozirgi kunda atrof-muhit ob'ektlarining ifloslanish darajasini oshishi bilan monitoringini takomillashtirish, soddalashtirish bo'yicha muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, mis ruxni chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot turlarini ko'paytirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Respublikamizda atrof-muhit ob'ektlarini monitoring qilishda turli xil analitik usullardan foydalanish, moddalarning

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni

sifatini hamda tozalik darajasini tizimli nazorat qilishni maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun kunda hammaga ma'lumki, ichimlik suvni ishlatish dunyodagi global muammodir, bunga yechim, birinchidan, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ikkinchidan, uni ifloslanishdan oldindan himoya qilishdir. Ayrim O'zbekiston olimlarining fikricha, atmosferada haroratning oshishi ichimlik suvi resurslarini 15-20 foizgacha qisqartiradi.

Kalit so'zlar: mis, og'ir metallar, RECHM, sorbent, kompleks birikmalar, sorbtion-spektroskopik usul.

RESULTS OF CHEMICAL ANALYSIS OF WATER OF WATER RESERVOIRS OF THE KASHKADARYA REGION AS WELL AS MONITORING OF CONTAMINATION WITH COPPER IONS

Abstract. *Currently, anthropogenic pollution is causing a significant increase in environmental issues, with the distribution of toxic metals that are considered. Controlling the amount of heavy and toxic metals distributed in the environment is an important environmental-analytical task. Among other things, it is important to create selective, reproducible, sensitive modern methods of detecting copper ions from environmental objects using analytical reagents.*

In our republic, it is important to develop sorbtion-spectroscopic methods for the detection of heavy and toxic metals, and now certain scientific and practical results are being achieved in improving, simplifying the monitoring of environmental objects with an increase in the level of pollution. The development strategy of the new Uzbekistan sets out important tasks for "broad introduction of innovations into the economy, development of cooperative relations of industrial enterprises and science institutions, increase the range of high value-added products in exchange for deep processing of copper zinc." In our republic, it is important to use various analytical methods in the monitoring of environmental objects, to optimize the systematic control of the quality of substances and the level of cleanliness.

Today, as everyone knows, the use of drinking water is a global problem in the world, the solution to which, firstly, is to use water resources wisely, and secondly, to protect it from pollution in advance. According to some Uzbek scientists, an increase in temperature in the atmosphere will reduce drinking water resources by 15-20 percent.

Keywords: *copper, heavy metals, RECHM, sorbent, complex compounds, sorbtion-spectroscopic method.*

Kirish. O'zbekistonda asosiy suv resurslari Amudaryo, Sirdaryo va quyi hajmi Surxondaryo, Qashqadaryo va Zarafshondaryo suvlari hisoblanadi. Qashqadaryo daryosidan yoz va bahor fasllarida oqava suvlar bo'yicha tajriba va tahlillar o'tkazilgan. Olingan tahlil natijalari 1- va 2-jadvallarda keltirilgan [1, 2(66)].

1-Jadval

Qashqadaryo daryolari suvlari tarkibining tahliliy natijalari

Komponent larning nomlanish	O'lchov biriligi	Sifat ko'rsatgichi*			
		Qashqadaryo (Kitob shah.)	Oq daryo (Kitob tumani)	Tanxoz daryosi (Shaxrisabz shah.)	Qizildaryo (Yakkabog' tumani)
Quruq qoldiq	mg/l	342,3	312,3	538,6	938,5
Tarkibiy birikmalari	mg/l	32,8	25,8	58,5	76,8
Sulfat ionlari	mg/l	154	162	151	222
Xlorid ionlari	mg/l	26	19	33	28
Ammoniy ionlari	mg/l	0,022	0,022	0,022	0,044
Nitrit ionlari	mg/l	0,049	0,047	0,020	0,040
Nitrat ionlari	mg/l	0,18	0,15	0,10	0,30
Temir ionlari	mg/l	0,24	0,21	0,28	0,32
Mis ionlari	mg/l	0,002	0,002	0,002	0,002

*- Namunalar 2019 yil 18 yanvarda olingan

Ushbu jadvallardan ko'rinib turibdiki, Kitob shahridan o'tuvchi "Qashqadaryo" daryosidagi sulfat ionlari (2019 yil yanvar holatiga) 154 mg/l, Yakkabog' tumanidagi mayin hududi oqava suvlarida "Qizildaryo" esa 222 mg/l. Huddi shunday xlorid ionlari "Qizildaryo" ning birinchi bo'limda 26 mg/l, to'rtinchi bo'limda (Qizildaryo, Yakkabog' tumani) 28 mg/l. Birinchi bo'limda nitrat ionlari mos ravishda 0,18 mg/l, ikkinchisida 0,15 mg/l, uchinchisida 0,10 mg/l, to'rtinchisida esa 0,30 mg/l ni tashkil qiladi. Natijalar 2018 yilning qish oylarida olingan (chuqurlik 60 sm) [3, 250 b.; 4, 232b; 5, 104 b.].

2019-yil mart oyida olingan yer usti daryolar suv namunalari ma'lumotlariga ko'ra, sulfat ionlari Kitob shahrida "Qashqadaryo" daryosi uzanida (chuqurlik 30 sm) 164,3 mg/l, Kitob tumanida "Oq daryo" oqimida (chuqurlik 20 sm) 72,4 mg/l, Shaxrisabz shahrida "Tanxoz daryosi" 131,7 mg/l va Yakkabog' tumanida "Qizildaryo" 461 ,0 mg/l n tashkil etgan. Olingan namunalardagi xlorid ionlari hududlarda quyidagicha tartibda: Kitob tumanida 30,0 mg/l, Shaxrisabz shahrida 40 mg/l va Yakkabog' viloyatida 35 mg/l. Shu bilan birga, nitrat ionlari tartibli bo'lib,

Kitob tumanida 0,75 mg/l Kitob tumanida 0,60 mg/l Shahrizabzda 0,48 mg/l, Yakkabog' tumanida 2,22 mg/l ni tashkil etgan.


